

ISSUE 3
MARCH 2024



"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"

- Applied sciences
- Chemical sciences
- Biological sciences
- Geography sciences
- Physical sciences
- Medical sciences
- Ecological sciences
- Pedagogical sciences
- Psychological sciences
- Mathematical sciences



Research Science and
Innovation House

**«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH» ilmiy konferensiyasi**

31.03.2024-yil.

Ushbu to‘plamda **«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH»** ilmiy konferensiyasi 2024 yil 1-soni 3-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Eslatma! Konferensiya materialari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li Urganch davlat Universiteti talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich**, Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.

2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich**, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich**, “Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigasiya va melioratsiya” kafedrasi professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna**, Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrasi professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.

5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich**, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasi, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrasi Dotsenti. Yo‘nalish - Tabiiy Geografiya.

8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna**, Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi , professori p.f.n.
10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi PhD, dotsenti.
11. **Samandarov Ergash Iskandarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent.
12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
13. **Rajabov Alibek Xushnudbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
14. **Babajanova Sanabar Yuldasbayevna**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi,qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD.,dotsent.
15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi dotsenti.
16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasi, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrasi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrasi dotsenti.
20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrasi, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) , dotsent.

**SURUNKALI TONZILLIT RIVOJLANISHIDAGI XAVF OMILLARINI
O'RGANISH VA DAVOLASH**

Avezov M.I., Raximov U.R.

TTA Urganch filiali “Otorinolaringologiya va oftalmologiya” kafedrasi

Muammoning dolzarbliyi: Hozirgi kunda aholi orasida surunkali tonzillitning ortishi va shu bilan birga uning asoratlangan bosqichga o'tishining ko'payishi otorinolaringologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lmoqda. Buni aynan LOR bo'limlariga bo'layotgan kundalik murojatlardan bilish mumkin. Muammoning jiddiyligi bemorlarning umumiy ahvolining o'g'irlashishi, yutishdagi, gapirishdagi muammolardan va ish qobiliyatining qisman pasayishidan bilib olish mumkin.

Ishning maqsadi: surunkali tonzillitning xavf omillaini o'rganish orqali davolashda fotodinamik terapiyani samaradorligini baholash

Tekshirish usullari va materiallari: Mazkur tadqiqotning maqsadiga muvofiq va qo'yilgan vazifalarni amalgalash uchun 2021 – 2023 yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasi va Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi ning LOR bo'limida burun to'sig'i deformasiyasi tashxisi bilan og'rigan 120 nafar bemor tekshiruvlarga jalbqilindi. Barcha bemorlar umum klinik va laborator tekshiruvlardan o'tkazildi.

Olingan natijalar: Tekshiruvdan o'tkazilgan bemorlarning jinsga nisbati taxlil qilinganda erkaklar 66 nafar ayollar 54 nafarni tashkil qildi. Shuningdek, bemorlar murojaati yillar kesimida o'rganilganda 2023 yilda oldingi yillarga qaraganda o'sish tendensiyasi kuzatildi. Bemorlarning aksariyati 18 dan 30 gacha bo'lgan yosh guruhiga to'g'ri keldi, bu umumiy bemorlar sonining 58% ini tashkil etdi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Tadqiqotga jalg qilingan 48 nafar bemorlarning barchasida burun to'sig'i qiyshiqligi aniqlandi, shuningdek, faringitlar 59 nafar bemorda surunkali evstaxeit , 21 nafar bemorda hamda 12 nafar bemorda otitlar aniqlandi.

Surunkali tonzillitning dekompensatsiyalangan shakli nafaqat bodomsimon bezlarining surunkali yallig'lanishining mahalliy belgilari, balki angina relapslari (surunkali tonzillitning kuchayishi), paratonsillit, paratonsillar xo'ppozlari, ichki organlarning kasalliklari shaklida dekompensatsiyaning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.Palatin bodomsimon bezlarining yallig'lanishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, surunkali tonzillitning dekompensatsiyalangan shakli surunkali intoksikatsiya belgilari bilan namoyon bo'lishi mumkin (bosh og'rig'i, ish qobiliyatining pasayishi, chарchoq, yurak va bo'g'imlarning og'rig'i va boshqalar).

Bemorlarning 20 foizida old va orqa qo'llarning yuqori qismlari qirralarining rolikli qalinlashishi (Zak alomati) qayd etilgan.

Xulosa surunkali tonzillitning intralakunar fotodinamik terapiyasi bodomsimon bez lakunalarining chuqur qismlarini patogen mikrofloralar bilan ifloslanishini kamaytiradi va uning gemolitik faolligini inhibe qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aznauryan A. B., Aznauryan A. C., Sarkisyan D. G. surunkali tonzillitda bodomsimon to'qimalarning Gistofermentativ tahlili / / klinik tibbiyotning dolzarb masalalari. Yerevan, 20155 yil. 455 457-bet.
2. Anisimov D. N. UFO Qonining funktional holatiga ta'siri-surunkali tonzillitning turli shakllari bo'lgan bemorlarda Palatin bodomsimon bezlari: dis. Samarqand. 2009 yil.
3. Авезов М.И. Диагностическая ценность белка p53 при полипозном риносинусите // Журнал стоматологии и краинофациальных исследований. Материалы международной научно-практической конференции (Самарканд, 21

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

мая 2021 г.) – С. 326.

4. Авезов М.И., Мадаминова М.Ш., Садуллаева А.Ф. Эпидермальный фактор роста и его роль в диагностике полипозного риносинусита // Europ. Res.: Innovation in sci., Educ. and technol. – 2014, №1 – С. 92.
5. Авезов М.И., Рахимов А.П., Юсупов Д.Д. Роль онкомаркеров в диагностике полипозного риносинусита (обзор литературы) // Колонка редактора.
6. Каримов Р., Авезов М. Оценка перинатальных случаев смерти, уровня и состояния заболеваний уха, горла и носа // Вестн. врача. – 2021. – Т. 1, №1. – С. 60-63.
7. Юлдашев Б.С., Каримов Р.Х., Бекчанов А.Ж. COVID-19 Ўтказган чақалоқларда пневмониянинг морфологик ҳусусияти // International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists " Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"(Poland). – Varshava, 2023. – С. 26-28.
8. Kh K.R. et al. Pathomorphological characteristics of respiratory aircraft changes in infants born from mothers with COVID-19 // J. Health Care Life Sci. Res. – 2023. – Vol. 2, №8. – P. 21-28.

**Research Science and
Innovation House**

**BERDIMUROD QARG‘ABOY O‘G‘LI BERDAQ HAYOTI VA IJODINI
HAMDA SHERLARINING, ASARLARINING BUGUNGI KUNDAGI
AHAMIYATI**

**Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi: Ahmedova Gulnoza
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura**

Berdaq (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li) (1827—Mo‘ynoq tumanı—1900)—shoir, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi. Avval ovul mакtabida, so‘ng madrasada tahsil ko‘rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini chuqur mutolaa qilgan, ulardan o‘rgangan. U tarixni va xalk, og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she’rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18—19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik,adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir (“Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrim” va boshqalar). Shoir haqiqat uchun, meg‘natkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni orzu qiladi (“Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqalar). Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi.

Berdaqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar solnomasi bo‘lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlarini bayon qilinadi. Berdaqning barcha ijod namunalarida xalqning turmush sharoiti, o‘scha zamonning ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Shoir o‘z asarlarida xalq boshidagi og‘ir ahvol, kambag‘allik, haqidagi qo‘shiqlari bilan xalqqa taskin berishga harakat qilgan.

Berdaq ozining zamonasidagi ba’zi ta’magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etib “Yaxshiroq”, “Shekilli” kabi sherlarida ruhoniylarning qing‘ir qiyshiq xolatlarini she’riy tarizda xalqga yetqizgan va boshqa asarlarida ham ko‘plab masalalarni yozadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallahsha chaqiradi o‘zining “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar she’rlarida ham ko‘plab pand nasixatli tarzda muammolarni yoritadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Shu bilan bir qatorda, Berdoq hayoti va ijodidagi she’rlari yoshlarimizni ozining dostonlaridagi bunyodkorlik ilimga intilish, xalqga xizmat qilish g‘oyalari bilan yosh avlodni o‘zining girdobiga tortib ketishi uchun qaraqolpoq tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilsak ko‘p tilli xalqimiz yoshlari oqib o‘rganishadi.

Berdoq xalqning o‘tli dardiga malham bo‘luvchi harorat bag‘ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bolgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o‘z sherlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxoni bilim olish uchun diqqatini qaratish kerak bo‘lgan nuqtalarga alohida urg‘u berib asarlar she’rlar yozgan. Berdaq yashashgan zamon ziddiyatli kurashlar zamoni bo‘lib qolmasdan ko‘plab mashaqqatlarga qiyinchiliklarga boy zamon bo‘lgan. Bu to‘g‘risida shoir Berdaq faqatgina qo‘shiqlarida emas ijodiy faoliyatidagi barcha asarlari orqali ko‘rish mumkin. “Ko‘rindi”, “Zamonda”, “Panoh ber”, “Oqibat”, “Davru davron”, “Ko‘zim”, “Bo‘lmadi”, “Ayrimoq” va boshqa qolyozmalarida ham yozilgan.

Uning she’rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘z aksini topgan. Berdaqning she’r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. U o‘z zamonasidagiadolatsizlikdan noliydi.

«Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,
Kun ko‘rmoqlik qiyin bo‘ldi bu zamon.
Maqsadingga o‘ylab-o‘ylab yetmasang,
Qiyin bo‘ldi kun ko‘rmoqlik bu zamon.»

Berdaq insonni yuksaklikka ko‘taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta’kidlab, hukmron sinf vakillarini mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o‘zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

Berdaq o‘zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, tamagirlilik, o‘zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,
Ular o‘ylar o‘z foydasin, o‘z qornin,
Hech qachon zolimlar qo‘ldagi borin,
Ep ko‘rmaslar, bor bo‘lsa-da, xalq uchun.

Berdaq o‘zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma’rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Из каракалпакской классики “БЕРДАХ”.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020 yil
3. B. Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
4. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo’llanma. Nukus2017 yil

Research Science and Innovation House

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

**CHIZMACHILIK FANIDA QIRQIM MAVZUSINI SAMARALI
O‘ZLASHTIRISH OMILLARI VA ULARGA OID METODIK TAVSIYALAR**

Raxmonova Maftuna Abdulla qizi

JDPU Sirtqi bo‘lim, “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasи o‘qituvchisi

Email: raxmonovam206@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtining tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarga va maktab o‘quvchilariga chizmachilik fanida qirqim mavzusini samarali o‘zlashtirish omillari va ularga oid metodik tavsiyalar keltirib o‘tilgan

Maqolada muhandislik grafikasi fanlarining xususiyatlari, o‘quv uslubiy ta’minoti, o‘qitish tamoyillari va metodlari, o‘qitish jarayonini tashkil etish, o‘tkazish va o‘qitishning faol usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Muhandislik grafikasi, baholash, qiyoslash, tekshirish, nazorat, qirqim, ta’lim, zamonaviy, metodika, chizmachilik.

Qirqim mavzusini samarali o‘zlashtirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan masalalar:

- ✓ o‘quvchilarga yaxshi tanish bo‘lgan misollarda qirqimlarning qo‘llanilishi, ularning maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatish;
- ✓ qirqim bilan kesim orasidagi farqni ko‘rsatish;
- ✓ qirqim tasviri keltirilgan chizmalami ko‘rsatish;
- ✓ qirqimda o‘lcham qo‘yish qoidalarini ko‘rsatish;
- ✓ chizmalarda materiallarni grafik belgilash;
- ✓ qirqim va kesim orasidagi farqni ko‘rsatishga hamda chizmalar chizishda ularga oid metodik tavsiyalar berish;
- ✓ kesuvchi tekisliklarning gorizontal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan joylashishiga qarab kesuvchi tekisliklar vertikal (frontal va profil) bo‘lishini tushuntirish;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

- ✓ qirqimlarni GOST talablari bo'yicha tasvirlash va belgilash;
- ✓ mavzuni o'rganishda ko'rsatmali qurollarga ega bo'lish, ajraladigan modellar, o'quv plakatlari, o'quv viodeofilmlari, o'quv kinofilmari (maxsus apparatlar yordamida namoyish etish) va boshqalar.
- ✓ buyumning bosqichma-bosqich bajarilgan chizmasini namuna sifatida ko'rsatish;
- ✓ qirqimni klassifikatsiyalash;
- ✓ qirqimli detal chizmasida o'lchamlar qo'yish hususiyatlari;
- ✓ qirqimning maxsus hollarini tushuntirish;
- ✓ qirqimlarda uchrashi mumkin bo'lgan tipik xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari;
- ✓ detallar komplekti, tarqatma materiallar ko'rgazmali qurollardan foydalanib grafik topshiriqlar bajarish asosida qirqim mavzusini o'zlashtirishda ko'nikma, malaka, bilimlarni mustahkamlash.

Bilimni tekshirish va nazorat qilishda quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi:

- Qanday tasvir qirqim deb ataladi?
- Kesim bilan qirqim o'rtaida qanday farq bor?
- Chizmalarda qirqimlar nima maqsadlarda qo'llaniladi?
- •Murakkab qirqim deb nimaga aytildi?
- •Pog'onali qirqim deb nimaga aytildi?
- Siniq qirqim deb nimaga aytildi?
- Pog'onali qirqimning siniq qirqimdan farqi nimada?
- Chizmada qirqimga kiruvchi kesim shakli qanday ajratib ko'rsatiladi?
- Oddiy qirqimlar nechtaga bo'linadi?
- To'liq qirqim deb nimaga aytildi?
- Kesim va qirqimlarda qanday shartlilik va soddalashtirishlarga yo'l qo'yiladi?
- Mahalliy qirqim deb nimaga aytildi?
- Qirqim bilan ko'rinishni birlashtirish deb nimaga aytildi?
- Qirqim bilan ko'rinishning bir qismini tasvirlash deb nimaga aytildi?

Qirqimlar mavzusiga oid dasturlashtirilgan nazorat kartalarini tuzish va ulardan foydalanish yo'llari

O'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishida, uni tekshirish va mustahkamlash ta'limni rejalashtirish masalalaridan biri hisoblanib, uni to'g'ri yo'lga qo'yish o'qituvchidan ijodiy yondashishni talab qiladi. Grafik bilimlarni nazorat qilishning qabul qilingan turli usullari mayjud. Masalan: bir qancha mavzularni qamrab olgan va dasturda oldindan rejalashtirilgan majburiy grafik vazifalar, tezkor savol- javoblar, har bir mavzuning tayanch bilimlarini amalda tekshirish uchun mo'ljallangan grafik topshiriqlar, har xil turdag'i misol va masalalar, ochiq va yopiq testlar va boshqalar. Chizmachilik real narsalarning tekislikdagi tasviri, ularning tasvirlari orqali shu narsalar tog'risidagi bilimlarini mantiqiy fikr yuritish bilan nazorat qilish xususiyati boshqa fanlarga nisbatan xususiyligi bilan farqlanadi. Shu bilan bir vaqtida qisqa vaqt ichida bilimlarni nazorat qilish mumkin. Bu masalada dasturlashtirilgan kartalardan foydalanish yaxshi natija berishi mumkinligi tasdiqlandi.

Qirqimlar mavzusiga oid dasturlashtirilgan nazorat kartalarini tuzish va uning imkoniyatlaridan foydalanish orqali qisqa vaqt ichida bilim tekshiriladi va kafolatli bilim olishga erishiladi.

Qayta ishlash masalasida oldindan tayyorlangan ma'lumotnomalar (spravochnik)dan va adabiyotlar ta'minotidan foydalaniladi.

Dasturlashtirilgan kartalardan foydalanish masofadan turib o'qitish masalasida qo'l keladi.

Quyida dasturlashtirilgan kartalar majmuasi tavsiya qilinadi:
Dasturlashtirilgan nazoratning majmuasi.
Qirqimlar mavzusiga oid nazariy savollar.

- ❖ Nazorat kartalari.
 - ❖ Qirqimlar mavzusiga oid nazorat kartalarining savollarga javoblar **varaqasi**.
 - ❖ Spravichnik (qisqa ma'lumotlar bazasi) ma'lumotlar
 - ❖ O'zlashtirishni belgilovchi adabiyotlar va ular bilan ishlashga oid ko'rsatmalar.

Qirqimlar mavzusiga oid nazariy savollar.

1. Frontal qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

2. Gorizontal qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

aniqlang va belgilang.

3. Profil qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

4. Pog'anali qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

5. Siniq qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

6. Mahalliy qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

7. Og'ma qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

8. To'liq qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

9. Yarim qirqim tasvirlangan va shunday qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

10. Ko'rinishning bir qismini qirqimning bir qismi bilan birga tasvirlangan va shu qirqimni talab qiladigan variantni aniqlang va belgilang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.O.Ashirboyev, E.I.Ro'ziyev, N.E.Tashimov "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma, T.: 2020 "Nodirabegim" nashriyoti.
2. T.Rixsiboyev "Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodologiyasi" o'quv qo'llanma, T.: 2011 "Tafakkur qanoti" nashriyoti
3. A.Urmonxo'jayev "Maktabda chizmachilik o'qitishni takomillashtirish". Metodik qo'llanma. T.1993 "O'qituvchi" nashriyoti.
4. M.Raxmonova "Finland International Scientific Journal of Education, Social Science" 520-524-betlar

**HOZIRGI KUNDA PEDAGOGIKA SOHASIDA QO‘LLANILAYOTGAN
ZAMONAVIY METODLAR**

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi**

Annotatsiya: Maqolada ta`lim samaradorligini oshirish maqsadida pedagogika sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlardan foydalanish haqida.

Kalit so`zlar: Zamonaviy metodlar, ta`lim,tarbiya, an'anaviy ta`lim,metodlar,guruh,baholash,pedagog,islohot, dastur, talab, jamiyat.

KIRISH

Ta`lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga

hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”²² degan da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib

talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim mакtablarida joriy qilish muhimligini ta’kidlandi.

Ana shu maqsadda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo‘llash zarurati mavjuddir. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan

boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim beruvchilar mazmunli va sifatli ta’lim jarayonini tashkil qilishlarida axborot manbalaridan ya’ni Axborot

kommunikatsion texnologiyalar (AKT) imkoniyatlaridan,

Axborot- resurs markazlari (ARM) elektron o‘quv bazalaridan, mahaliy va xorijiy o‘quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalana olishlari muhimdir. Ta’lim tizimi oldiga

qo‘yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, ularning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalash ko‘p jihatdan ta’lim beruvchiga bog‘liq bo‘ladi.

«Metod» — yunoncha «metodos» - «yo`l» degan so`zdan paydo bo`lib, u tadqiq qilish ma‘nosini anglatadi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta’lim metodlari – o‘qitishning o`z oldiga qo`yan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo`naltirish yo`llarini bildiradi. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo`lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta’lim metodio`qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyatini yo`lidir.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim

oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha birbiriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi. “Davra suhbati” metodi:

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. [Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. 2004]

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plib, ular orqalima’lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

“Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon

etadilar. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu

jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi.

Muhokama Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli xil zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish ko‘proq natija bermoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari bolani darsga qiziqishini oshirib ta’lim olish darajasini yaxshilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Ya’ni zamon bilan hamnafas zamonaviy metodlar hozirgi ta’lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

jarayonining talabi ham bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari asosan qiziqarli o‘yinlar, turli topshiriqlar, mantiqiy yondashishlar, teran fikrlarni shakllantirib beradi. Bu metodlardan foydalanish yangi marralarni egallashdek gapdir. Asosan yurtimiz an’anaviy ta’lim metodlaridan hozirgi kungacha foydalanib kelmoqda va bu metodlar dars jarayonini zerikarli o‘tishiga, bola diqqatini chalg‘ishiga, o‘quvchi darsda bemalol o‘z fikrini bildira olishi qiyinlashishiga olib keladi. Bu narsalar esa hammani dars davomida baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Xullas an’anaviy va zamonaviy ta’lim metodlarini dars davomida birdek qo‘llash darsni ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tishiga yordam beradi.

Natija Zamonaviy ta’lim metodi sifatida ko‘p qo‘llaniladigan **O‘yin** metodi dars jarayonini qiziq o‘tishini ta’minlovchi va bolalarga shu yil bilan ta’lim tarbiya beruvchi metod hisoblanadi. Asosan bu metodni boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga qo‘llash ularni darsga qiziqishini oshiradi. Natijada bolalar berilgan vazifani o‘z vaqtida bajarib kelishadi. Undan tashqari

Aqliy hujum metodi, bu metod bolani erkin fikrlashiga va muammoni anniq qilib yechishiga yordam beradi va bola dars davomida o‘zining fikrlarini bemalol bildira oladi. Zamonaviy ta’lim metodlari bolani aqliy qobiliyatlarini oshirib beruvchi metodlar sirasiga kiradi

Xulosa Xulosa qilib aytganda ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergen savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergen javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’yektiv baholashi mumkin.

Bo‘lajak pedagoglar hozirgi zamon talabiga mos tarzda bilim berish uchun zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ta’lim oluvchini ham, ta’lim beruvchini ham doim izlanishda bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 . Shavkat Mirziyoyev Miromonovich “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent 2017
- 2.Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. Qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy Nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
4. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va Qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
5. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ” Toshkent -2017 92-96-betlar.
6. G ’aybullaev N.R., Yodgorov R, M amatqulova R, Pedagogika. O ’quv qo’llanma. - T .: O ’ZMU, 2005
7. F.U. Haydarov, N.I. Xalilova “Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” Toshkent 2007-yil 98- bet.

**Research Science and
Innovation House**

O‘qituvchilar jamoasidagi sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ergashova Dilobar Muhiddin qizi**

Annotasiya: Maqlada o‘qituvchilar jamoasida sog‘lom muhitni yaratishning pedagogik-psixologik asoslarini tahliliga e’tibor qaratilgan. Jamoadagi psixologik zo‘riqishlarni bartaraf etish, ta’lim muassasasi rahbari va bo‘ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do‘stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarini yaratish.

Kalit so‘zlar: psixologik muhit, shakllantirish, pedagog, rahbar, ta’lim, metod, usul, vosita, jamoa, individual, xarakteristik, mehnat, guruh.

Kirish

Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasıdir, bu guruhning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan alohida ob’ektlarni (hodisalar, jarayonlarni) aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ijtimoiy jarayondir. Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo‘lmaydigan faktadir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi oldiga qo‘yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo‘lsa, mehnat jamoasi a’zolarining o‘z kasbidan qoniqqanligidir. Jamoadagi zarur munosabatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishini kutish mumkin emas, ular ongli ravishda shakllanishlari kerak. Jamoadagi psixologik iqlimni yaratish. Kollektiv uyg‘unlik mexanizmlari. Axloqiy va psixologik muhit, uning a’zolarining guruhiga yoki jamoadagi a’zolarining nisbatan barqaror psixologik munosabatidir, ularning barcha turli shakllarida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va psixologik iqlim jamoa a’zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatlari, ishlash uchun, atrofdagi va butun tashkilotga individual, shaxsiy qiymatga yo‘naltirilgan holda ishlashga to‘g‘ri keladi. Bosh yoki jamoaning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

a'zosining har qanday harakatlari (ayniqsa salbiy belgi) Ular axloqiy va psixologik muhitning holatiga ta'sir qiladilar, deformatsiyalashadi. Chunki, jamoada ijobiy muhit bo'lishi uchun, jamoa azolari o'zidan, ayniqsa, o'z kasbidan qoniqqan bo'lishlari zarur.O'qituvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini o'rghanish, pedagogik faoliyat va o'qituvchi muloqotining o'zaro munosabati masalasi psixologiya fanida bir qadar tadqiq qilingan muammolardan biridir. Biroq mamlakatimizda, hozirgi zamон bolalariga pedagogik ta'sir o'tkazishda o'qituvchi ishlayotgan mikromuhitning ta'siri, bu sohada o'qituvchilarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoani boshqarish orqali u yerda ijodiy muhit va hamkorlikni, kasbga fidoyilik va qiziqishni shakllantirish va bu muammoning psixologik imkoniyatlarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Shukurov Xursan o'zining maqolasida quyidagilarni keltirib o'tgan: Pedagogik jamoada boshqaruv etikasi va rahbar fazilatlari o'qituvchi va o'quvchilarda sog'lom ruhiyat, o'qishga qiziqish, kasbga muhabbat va kelajakka ishonch hosil qilishda yetakchi ahamiyatga ega. Fazilat – bu ijobiy xislat yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarining turlicha bo'lishi hamda xulq – atvorlar insonning badanini aylanib yuradigan suyuq moddalariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi tajribada ko'zatilgan. Avvaliga "Ijtimoiy-psixologik muhit" atamasi sifatida tushunish kerakligini aniqlash kerak. Jamoadagi ijtimoiy va psixologik muhit umuman, umuman jamg'arma holatini aks ettiruvchi murakkab, integratsiyalashgan indikator, balki qo'shma maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradi. Jamoadagi ijtimoiy va psixologik iqlimi tashkil etuvchi asosiy omillar:

- 1.Xodimlarning o'z faoliyatiga hissiy munosabati;
- 2.Jamoada xodimlar o'rtasidagi munosabatlar;
- 3.Qo'l ostidagilar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlar;
- 4.Xizmat va mehnat tashkilotining ichki omillari;

Mehnatni targ'ib qilish uchun iqtisodiy (material) omillar. Qadimgi tibbiyotning yirik namoyondasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o'rinni ishg'ol etsa bunday odam harakatchan yengil bo'ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko'niki keta qoladi, o'z atrofida sodir bo'ladigan voqyealarga darhol va ishtiyoq bilan aralashadi degan fikri beziz emas. Mana shu kishilarni Gippokrot sangviniklar deb atagan. Bu lotincha "sangvinik" ya'ni "qon" degan so'zdan kelib chiqqan. Sangviniklar tuyg'u xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: Yangi kishilar bilan tez til topishadigan;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko‘nikadigan; Bir turda bajaradigan ishlarni yoqtirmaydigan; Yangi sharoitga osonlik bilan o‘rganadigan; Xushchaqchaq; Harakatlari shiddatli; Nutqi tez; Kelajakka ishonch bilan qaraydigan; So‘zini aniq va ma’noli qilib imoishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Norova Intizor Haqberdiyevn ham o‘z maqolasida psixologik muhitni yaratishga oid ko‘plab yechimlar keltirgan: • jamoada ishbilarmonlik, ish kuni davomida ijodiy kayfiyat, xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda quvnoq ohanglari, kayfiyatdagi optimizm hukmronlik qiladi;

- munosabatlar hamkorlik, o‘zaro yordam, xayrixohlik tamoyillari asosida quriladi; guruh a’zolari hamkorlikda ishlarda qatnashishni, bo‘sh vaqtlarini birga o‘tkazishni yaxshi ko‘radilar; munosabatlarda ma’qullah va o‘zaro qo‘llabquvvatlash ustunlik qiladi, yaxshi konstruktiv tanqid bildiriladi;
- tashkilot xodimlari faol, kuch-qudratga to‘la, o‘zaro yordamda tezda javob berishadi, xodimlarning o‘zaro yordami kerak bo‘lsa, hamkasbini «to‘laqonli qamrab olishga» tayyorligi;
- ayrim xodimlarning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari tashkilotning barcha a’zolarining hamdardligi va samimiyl ishtirokini keltirib chiqaradi, agar muvaffaqiyatga erishilsa, xodimlar o‘z hamkasblari va o‘z tashkilotlari bilan faxrlanishni his qilishadi;
- tashkilot tarkibidagi tarkibiy bo‘linmalar yoki jamoadagi mikro guruhrar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro kelishuv, tushunish va **hamkorlik** vujudga keladi;
- kadrlar qo‘nimsizligining pastligi. Xodimlar boshqa tashkilotlarga teng, ba’zan esa yuqori lavozimlarga o‘tkazilishidan ham bosh tortishadi;
- tashkilot uchun qiyin paytlarda jamoaning jipsligi va hissiy birligi mavjud ("bitta - hamma uchun, va hamma – bir kishik uchun").

Muhokama

Ayni paytda jamoaning psixologik iqtisodini tashkil etuvchi jahon iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti inqirozlari mehnat unumdarligi va mahsulot sifatini oshirish uchun kurashning ajralmas qismi hisoblanadi. Rivojlanish bilan ijtimoiy taraqqiyot, uning qarama-qarshi ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijobjiy ijtimoiy va psixologik iqlimni shakllantirish muammolari (sek) chambarchas bog‘liq. Jamoani boshqaruvi bo‘yicha psixologik jihatlarning ta’siri muammosi qulay sekund uchun muhim va asosiy poydevorlardan biridir. Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga belgilanayotgan zamonaviy talablar ta’lim va yoshlari to ‘g ‘risidagi hukumat tomonidan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ‘ibot qiladigan; o‘z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning sub’yekтивларини ва faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar va pedagoglar ham korligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda m otivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta ’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.O‘qituvchi-tarbiyachi shaxsini rivojlantirishning kasbiy va universal xususiyatlarini o‘qituvchi shaxsining kasbiy mahoratining mohiyatini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular hodisani tahlil qilishning quyidagi asosiy yondashuvlari va darajalari nuqtai nazaridan hisobga oladigan murakkab yaxlit tizimni taklif qiladilar: normativ-ro‘l shaxsiyat farqlanadi. (differensial-tipologik va differensial darajada bo‘linish, subyektiv). Bundan tashqari bir qator atamalar va tushunchalarda aks ettirilgan individual integrativ hodisalar orqali shaxsni o‘rganishda mavjud tendensiyalarni hisobga olish zarur deb hisoblaymiz. Garchi ularning aniq va mantiqiy uyg‘un tasnifi hali taklif qilinmagan bo‘lsa-da, ammo bu hodisalarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning shartlari va shakllanishining natijalari hisoblanadi.

Natija

Amerika ijtimoiy psixologiyasida ular tashkilotlarda va menejerlararo tashkilotlarda "tashkiliy madaniyat" haqida gapirishadi. "Inson munosabatlari" nazariyasi E. Matio, birinchi navbatda, xodimlar o‘rtasidagi aloqa munosabatlarini shakllantirishga asoslanadi. Iqlimi o‘rganayotganda, uning ikki darajasini yodda tutish kerak. Birinchi daraja statik, nisbatan doimiy. Bu jamoa a‘zolarining barqaror munosabatlari, ularning ish va ish hamkasblariga bo‘lgan qiziqlishi. Shu darajani ijtimoiy-psixologik muhit tushuniladi, bu esa tashkil etilgan barqaror, juda barqaror ahvolda, tashkilot oldida turgan qiyinchiliklarga qaramay, uzoq vaqt davomida yo‘q qilinishi va o‘z mohiyatini saqlab qolish mumkin emas. Shu nuqtai nazaridan, guruhda qulay iqlimi shakllantirish juda qiyin, ammo shu bilan birga, uni ilgari shakllangan ma'lum darajada saqlash osonroq. Hamma gap psixolog o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozisiyasini juda muhim rol o‘ynaydi. Psixolog pozisiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

iborat:

- pedagog bilan bo‘lgan munosabatga ustanovka;
 - pedagoglarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka
- subyekt – subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka. Ta`lim jarayonida shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo‘lgan konstruktiv hamkorlikni ta’minlay oladi. Bundan tashqari, pedagogik professionallikning shaxsiy dunyoqarashini rivojlantirish, ayniqsa istiqbolli o‘qituvchining o‘zini-o‘zi qadrlashi va ijodiy o‘zini-o‘zi anglashi, pedagogik ishning individual o‘ziga xosligi muhum ahamiyatga ega. Bu o‘qituvchining mavjud kasbiy tajribani yangi yondashuvlar, ma’nolar, mazmun va texnologiyalar bilan boyitishga tayyorligining potensial shartidir. Pedagogik professionallikning asosiy tarkibiy qismi – o‘qituvchi shaxsining professionalligi-psixologik va pedagogik fanda ko‘rib chiqilgan rivojlanish parametrlari nuqtai nazaridan o‘qituvchining shaxsi to‘g‘risidagi bir qator fikrlar asosida amalga oshirildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik ishdagi ro‘lini belgilaydigan g‘oya yangilik emas. Bu tarixan kamolotga yetdi va o‘tmishdagi ko‘plab mutaffakkir va pedagog shaxslarning asarlarida ko‘rib chiqilib, asosan o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari va fazilatlariga talablarni ochib beradi, bu o‘qituvchilik kasbining standartlariga mos keladi va o‘qitishda muvaffaqiyat va samaradorlikni ta’minlaydi. Mustaqil tadqiqot muammosi sifatida ularni o‘rgatish, tuzish, tasniflash va iyerarxizatsiya qilish P.F. Koptereva, M.D. Levitovaning yozuvlarida, didaktoliya va pedagogika g‘oyalaringin bevosita ta’siri ostida pedagogik ishning birinchi professional modellarida boshlanadi. Muayyan turg‘unlik davridan keyin yangilangan gumanistik paradigmalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy muammosi o‘rganilmoqda. O‘qituvchilarda sog‘lom psixologik muhit yaratish uchun avvalo o‘qituvchining psixologiyasini o‘rganish talab etiladi. Muhitni sog‘lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu mutaxassisning ta’sir eta olishi va psixokorreksion ishning sifatliligidandir. Ma'lum bir omillar ma'lum bir ijtimoiy-psixologik iqlimi shakllantirishga ta'sir qiladi:

1. Uning a'zolarining muvofiqligi xodimlarning xususiyatlarining eng qulay kombinatsiyasi, qo‘shma faoliyat samaradorligini va har biridan qoniqish sifatida tushuniladi. Muvofiqlik o‘zaro tushunish, o‘zaro bog‘liqlik, jamoaning a'zolariga birlariga etkazadigan o‘zaro bog‘liqlikdir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Uchta moslikning mosligi farqlanadi: psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy va psixologik:

Mosovning psixofiziologik darajasi sezgi tizimining xususiyatlarining maqbul kombinatsiyasiga (qarash, eshitish, teginish, teginish va boshqalar) va temperament xususiyatlari. Ushbu muvofiqlik darajasi qo'shma faoliyatni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega. Vebererik va flegmatik boshqa sur'atlar bilan vazifani bajaradi, bu ishchilar o'rtasidagi munosabatlar va keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun xodimlarning individual faoliyatini (guruh a'zolarining har xil chidamliligi, fikrlash tezligi, idrok, e'tiborning xususiyatlari) jismoniy majburlash va ko'rsatmalarni tarqatishda hisobga olinishi kerak alohida turlar Ish.

Xulosa

Xulosa o'rnida jamoaning psixologik iqtisodini tashkil etuvchi jahon iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti inqirozlari mehnat unumдорлиги va mahsulot sifatini oshirish uchun kurashning ajralmas qismi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotni rivojlantirish bilan, qulay ijtimoiy psixologik iqlimi shakllantirish muammolari uning qarama-qarshi ijtimoiy-psixologik jihatlari bilan chambarchas bog'liq. Jamoani boshqaruvi bo'yicha psixologik jihatlarning ta'siri muammosi qulay sekund uchun muhim va asosiy poydevorlardan biridir. Ushbu muammoning dolzarbligi jismoniy shaxsning mehnat faoliyatiga va shaxsiy da'volarining doimiy o'sib borishi bilan odamning psixologik hayotining asorati tufayli izohlanadi. Ushbu muammolarni hisobga olgan holda, kurs ishimning maqsadi jamoada boshqaruvning psixologik jihatlari va jamoada psixologik muhitni ko'rib chiqish jarayonini tahlil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika kursi Tursonov Z. Nishonaliev I. T. «Uqtuvchi» 1997 y.
2. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.
3. N.X.Avliyoqulov. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. "Muallif" 2001.
4. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
5. Olimov Q. Uzoqova L. Halimov E va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi . – T.: Fan, 2004.

Yoshlarni yot g‘oyalardan saqlash pedagoglar nazdida

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yònalishi
1-kurs talabasi Xòjamqulova Sarvinoz Hasanovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni yot goyalardan saqlash, ularning ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan. Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlarni yot goyalardan saqlash, ularning ma’naviyatini, axloqini yuksaltirishga qaratilgan.

Kalit sòzlar: ta’lim, tarbiya, pedagog, oila, jamiyat, muhit, òqituvchi, jamoa, mahalla.

Kirish. Tarbiya-insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya juda jiddiy, nozik jarayon hisoblanib, dastlab ota-onan tomonidan bolaga beriladi, bolaga tarbiya berish uchun esa ota-onaning özi tarbiyalanga, axloqiy, ma’naviy jihatdan yetuk bòlmoğı darkor.” Qush uyasida kòrganini qiladi” deganlaridek bola ham oilada olgan tarbiyasini kòchada kòrsatadi. Tarbiya jarayonida nafaqat oila balki jamiyat, muhit, mahalla, jamiyat va boshqalar ham öz ta’siriga ega. Har bir ota-onan farzandiga tòğri tarbiya bersa shu mahallada, ösha jamiyatda, ösha davlatda rivojlanish, yuksalish bòladi, ilmli, bilimli kishilar, olim va olimalar kòpayadi. Bugungi kunda yoshlarni yot goyalardan saqlash asosiy vazifa bòlmoqda. Xalqimizda shunday gap bor” kasalni davolagandan oldini olmoq afzal” ushbu gap bejiz emas albatta, ya’ni har bir ötgan daqiqada farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish kerak, ularni yot goyalari iskanjasiga tushib qolishdan asrash kerak.

Birinchi navbatta bolalarni ma’naviyatini yucasaltirish, ularni islam dini aqida va tushunchalari bilan tarbiyalash lozim.

Ikkinchi: hozirgi kunda hayotni internetsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Demak, o’z-o’zidan uni mutlaqo man etib, uning faoliyatini to’xtatib qo’yishga imkoniyat yo’q. Shuning uchun internetdan tòğri foydalanish ni o’rgatish kerak buning uchun esa tarbiyalovchining özi örnaku.

Uchinchdan tarbiyalanuvchining vaqtinini tòğri tashkil etish kerak.

To’rtinchi: yoshlarni mazkur illatlardan ogohlantirib, qaytarish bilan birgalikda ularni ko’ngillarini egallay oladigan, har taraflama foydali va samaraliroq bo’lgan g’oyalari bilan ta’minlash kerak.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Beshinchi: Internet saytlarida yoshlarni zeriktirmaydigan, balki ular uchun yangilik va kashfiyot sifatida qabul qilinadigan darajadagi ijobiy, axloqiy, diniy ma'lumotlarni ko'plab tarqatish kerak. Yoshlarning qalbida esa har qanday narsani bilib, har qanday maxfiy narsani ko'rib va kuzatib turuvchi Alloh taoloning borligi va Yagonaligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish kerak. Oltinchidan. g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish uchun safarbar qilingan mutaxassislar xolis, haqiqiy vatanparvar, millatparvar va shu bilan birga o'zi targ'ib qilayotgan milliylik va ma'naviyat talablariga haqiqatan amal qilib, jonli o'rnak bo'la oladigan bo'lishi kerak. Yettingchida. Bu borada har taraflama xalqning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lgan, ularning ishonchini qozongan, doimo o'zining shaxsiy manfaatlaridan ko'ra yurt va xalqining manfaatlarini yuqori ko'ra oladigan darajadagi namunali mutaxassislar ish olib borishlari kerak. Buni belgilash uchun esa har xil ilmiy unvonlarining ko'pligi emas, balki uning yetkazayotgan ma'lumotlariga ko'pchilikning qulq solib, unga amal qilayotganiga nazar solish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarorni qabul qildi. Hozirgi vaqtda “Tarbiya” alohida fan sifatida tashkil qilinib olib borilmoqda. Bu fanning maqsadi, ta'lim muassasasilarini o'quvchilariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lgan, bunda boy qadriyatlarimizdan keng va oladigan zarur metodlarini tanlab bilihga qodir bo'lgan pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asosiy berilgan vositalari shakllari metodlarini qo'llanishi bilan ajralib turgan. Bu orinda taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uuchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat yo falokat masalasidir" degan chuqur manoli naqadar haqiqat ekanini bugun har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.A.Avloniyning ushbu gapida olam-olam mano bor.Tarbiya masalasida soz borar ekan bu jarayonda e'tiborsizlik qilish yaramaydi arzimas e'tiborsizlik koplab kongilsizliklarni keltirib chiqaradi.

Muhokama va natija Tarbiya haqida soz borar ekan ushbu jarayon har birimizning hayotimizda muhim orin tutadi.Tarbiya bu bir insonni aqlan,jismonan,ma'nan ostirib komillik sari yetaklovchi jarayon hisoblanadi.Agarda biz tarbiya masalasiga doim jiddiy e'tibor berib,uni barcha narsadan ustun qoysak kozlangan natijaga erishamiz.


“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Xulosa. Xulosa qilib aytganda tarbiya barcha uchun muhim bòlgan,insonni qandayligi,qanday muhitda ösganini korsatib beradi.Ota onaning,atrofdagilarning vazifasi bolaga tòğri yòlni kòrsatish hisoblanadi,biz bolani niholga qiyoslasak keyinchalik yaxshi natijaga erishmoqchi bolsak,jamiyatda tarbiyalangan insonlarni kòpaytirmoǵimiz lozim ekan niholni yaxshi parvarish qilish kerak,bu barchamizning oliv burchimiz,chunki bolaning begonasi bòlmaydi,yana xalqimizda shunday gap bor”Bir bolaga yetti mahalla ota-onas “ayniqsa bu jarayonda ota-onaning,òqituvching örni beqiyosdir,ularni yot ǵoyalardan saqlash asosiy vazifamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati

- 1 F.U Haydarov,N.I Xalilova”Psixologiya fanlarini öqitish metodikasi”Toshkent 2007,175-bet
- 2 Norposhaxon Voxidova,Faroğatxon Mirzayeva”Ijtimoiy pedagogika”Toshkent 2021,253-bet.
- 3 A.Xoliqov “Pedagogik mahorat”Toshkent-2010,311-bet.



Research Science and Innovation House

**TO‘LIQ OLIB QO‘YILADIGAN PROTEZLAR BILAN PRTOTEZLASH
JARAYONIDA OPERATSION YUZANING QURUQLIGINI TAMINLAB
BERISH VA YUMSHOQ TO‘QIMALAR BILAN ISHLASH**

Alamov Jahongir Azamat o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand Davlat Tibbiyot
Universiteti Ortopedik Stomatologiya kafedrasi Klinik Ordinatori

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda to‘liq tishsizlikda bo‘lgan bemorlar bilan ishlash jarayonini mukammal ishlashni shu bilan birgalikda bemorlarga qulaylik darajasini yanada oshirishda to‘liq tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ortopediya, alveolyar o‘sinq, shilliq qavat, tanglay, protez, atrofiya, allergik, o‘tkir, surunkali.

Og‘izning shilliq qavati, inson tanasining boshqa shilliq pardalaridan farqli o‘larоq, bir qator xususiyatlarga ega. Jismoniy, kimyoviy tирnash xususiyati tashqi moddalarning ta’siriga, shuningdek infektsiyalarning kirib borishiga chidamli. Shilliq qavatning regenerativ qobiliyati juda kuchli. Ushbu xususiyatlar ma’lum darajada shilliq qavatning tuzilishiga bog‘liq.

Tish uzulgandan keyin og‘iz bo‘shlig‘ida paydo bo‘ladigan o‘zgarishlar nafaqat alveolyar tizmani, balki ularni qoplaydigan shilliq qavatni va qattiq tanglayni ham uzgartiradi. Ushbu o‘zgarishlar alveolar tizmaning atrofiyasi bilan, burmalar, alveolyar qismning qobig‘iga nisbatan o‘tish joyi holatidagi o‘zgarishlar bilan ifodalanishi mumkin. O‘zgarishlarning tabiatи va darajasi nafaqat tishlarning yo‘qolishi, balki ularni olib tashlash uchun asos bo‘lgan sabablarga bog‘liq.

Umumiy va mahalliy kasalliklar, yoshga bog‘liq omillar, shuningdek, shilliq qavatining tuzilishi va xususiyatlariga ta’sir qiladi. Protez joylashadigan protez to‘shaginiн o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, protez usulini tanlashda va yaxshi natijaga erishishda juda muhim ahamiyatga ega. Protez yotadigan yuzani qoplaydigan to‘qimalarning xususiyatlarini bilish protezlash usulini tanlashda ham, yaxshi natijaga erishish uchun ham juda muhimdir. Protezning qo‘llab-quvvatlaydigan to‘qimalarga zararli ta’sirining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Supple asosiy e'tiborini protez asosining shilliq qavatining holatiga qaratadi va uni to'rtta sinfga bo'ladi:

1. Birinchi sinf: Ikkala yuqori va pastki jag'lar bir oz egiluvchan shilliq qavat bilan qoplangan alveolyar osiqlarga ega. Tanglay bir tekis shilliq qatlam bilan qoplangan, uning orqa sohasi mo'rtlashgan bo'ladi. Yuqori va pastki jag'lardagi shilliq qavatning tabiiy burmalari (lablar, yonoqlar va til), alveolyar o'siqdan uzoq joylashgan bo'ladi. Ushbu sinf shilliq qavat protez uchun qulay tayanchdir.
2. Ikkinci sinf: Shilliq qavat atrofiylangan, alveolyar o'siq va tanglay yupqa, go'yo cho'zilgan qatlam bilan qoplangan. Tabiiy burmalarning biriktiriladigan joylari alveolyar o'siq tepasiga biroz yaqinroq joylashgan, zich va ingichka shilliq qavat olinadigan protezni qo'llab-quvvatlash uchun unchalar ham qulay emas.
3. Uchinchi sinf: Alveolyar o'siq va qattiq tanglayning orqa qismi, bo'shashgan shilliq qavat bilan qoplangan, shilliq qavatning bu holati ko'pincha past alveolyar o'siq bilan birlashtirilgan. Shunga o'xshash shilliq qavati bo'lgan bemorlar ba'zida oldindan davolanishga muhtojdirlar. Protezdan so'ng, ayniqsa protezni ishlatish rejimiga qat'iy rioxaya qilish kerak va shifokor kuzatuvida bo'lishlari kerak bo'ladi.
4. To'rtinchi sinf: Shilliq qavatning harakatchanligi bilan izohlanadi. Shilliq qavat osongina qolip olish xomashyosining, hattoki past bosimli ta'siri ostida o'z joyini o'zgartiradi. Bu esa o'z navbatida protezni ishlatishni qiyinlashtiradi yoki imkonsiz qilib qo'yadi. Bunday burmalar asosan pastki jag'da, alveolyar o'siq atrofiyasida kuzatiladi. Shunday holatda protezlash, ba'zan uni olib tashlaganidan keyingina amalga oshiriladi.

Supple tasnididan ko'rinish turibdiki, shilliq qavatning muvofiqligi katta amaliy ahamiyatga ega.

Shilliq qavatining turli muvofiqlik darajasiga qarab Luynd qattiq tanglay ustidagi to'rt hududni ajratib beradi:

- 1) sagital chokning maydoni;
 - 2) alveolyar osiq maydoni;
 - 3) ko'ndalang burmalarning maydoni;
 - 4) orqa qism.
- Birinchi hududning shilliq qavati yupqa, shilliq ostki qatlamga ega emas.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Uning muvofiqligi ahamiyatsiz. Ushbu joyni Luynd medial (o'rta) tolali hudud deb atadi.

- Ikkinchi hudud alveolyar tizimga tegishli. U shilliq qavat bilan qoplangan, deyarli shilliq osti qatlamdan ajralib turadi. Bu joyni Luynd periferik tolali hudud deb atadi.

- Uchinchi hudud o'rtacha muvofiqlik darajasiga ega bo'lgan shilliq qavat bilan qoplangan.

- To'rtinchi hudud qattiq tanglayning orqa uchdan bir qismi - shilliq bezlarga boy va ozgina yog‘ to‘qimasini o‘z ichiga olgan shilliq osti qatlamga ega. Bu qatlam yumshoq va vertikal yo‘nalishda bo‘lib, eng yuqori darajada mos keladi va glandular mintaqa deb ataladi.

Ortopedik taglik - organlar va to‘qimalar majmuasi, tish bilan bevosita aloqadagi protez.

Protezlarning to‘qimalarga va tish a'zolariga ta'siri, odam organizmining tashqi muhitga ta'sirlari kabi har xil. E. I. Gavrilov (1973) protezlarning og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatiga ta'sirini quyidagicha ta`riflab berdi:

- nojo‘ya ta’sirlar;
- travmatik (shikast) ta’sirlar;
- toksik ta’sirlar;
- allergic ta’sirlarga ajratdi.

Protez to‘shagi yuzasi to‘qimalarining reaktsiyasi asosan shilliq qavatning yallig‘lanishi (giperemiya, shish, og‘riq, giposalivatsiya) shaklida namoyon bo‘ladi. Ular intensivligi va kengligi bilan o‘zgarib turadi. Uzoq muddatli yallig‘lanish, eroziya, oshqozon yarasi, giperplastik o‘sishlar, qo‘ziqorin tipidagi poliplar shaklida, shuningdek asab tizimining, somatik kasalliklarning, oshqozon-ichak traktining kasalliklarida, bosh og‘rig‘ining va boshqalarning umumiy somatik kasalliklarida uchraydi.

Protezlar ta'siri ostida og‘iz bo‘shlig‘i to‘qimalarda yuzaga keladigan reaktiv o‘zgarishlar - protezli stomatit deb ataladi. Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Ortopedik stomatitlar (jarohatlardan tashqari):
 - a- o‘choqli;
 - b- tarqoq.
2. Travmatik stomatitlar:
 - a- o‘tkir;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

b- surunkali (dekubital yara).

Mexanik shikastlanish natijasida kelib chiqadigan stomatit deyarli barcha bemorlarda protez qo'llanilgandan keyin rivojlanadi, uning asosi protez to'shagini relyefi va chegaralariga to'g'ri kelmaydi. Ularning oldini olish davolanishning to'liqligi printsipiga rioya qilishni o'z ichiga oladi: protezni qo'llaganidan keyin shifokor protez to'shagini to'qimalari shikastlanish xavfi yo'qligiga ishonch hosil qilguncha bemorni kuzatadi.

Protezni qo'llanilgandan keyin, 1-7 kun o'tgach, quyidagilar yuz berishi mumkin:

1. Toksik stomatit: Monomerning plastmassadagi ortiqcha miqdori ($> 0,5\%$ - issiq ta'sirida, $> 2\%$ - sovuq tasirida), shuningdek, uning depolimerizatsiyasi paytida, bezovta qiluvchi va toksik (protoplazmatik zahar) ta'sir ko'rsatadigan metakril kislota chiqarilishi bilan birga vujudga keladi. Protez to'shagini shilliq qavati, shuningdek og'iz shilliq qavatining blastomogeneziga olib keladi.

Tish protezlari gigienasi bilan bakterial toksinlarning ta'siri.

2. Allergik stomatitlar. Kechiktirilgan ta'sir reaktsiyalari guruhiba kiruvchi kontakt stomatit ko'rinishidagi allergik reaktsiyalar (tananing immunitet reaktsiyasi), oqsil bo'limgan tabiatdagi moddalar (monomerlar, bo'yoqlar, metall oksidlari) ta'siri ostida rivojlanadi va shuning uchun antigenlar emas, balki konyugatsiya tufayli, og'iz shilliq qavatining oqsillari bilan allergenga aylanadi. Bunday moddalar "Gaptens" deb ataladi. Allergiya rivojlanishi jarayoni uch bosqichga ajratiladi: immunologik, patokimyoviy va patofiziologik yoki klinik ko'rinish bosqichi. Oxirgi bosqichda paydo bo'lган vositachilar og'iz bo'shlig'ining hujayralari va to'qimalariga patogen ta'sir ko'rsatadi.

3. Ba'zida protezlashda parasteziya, protez to'shagi shilliq qavatining quruqligi, klinik jihatdan o'zgarmagan shilliq qavatdagi og'riq, uning tarqoq yallig'lanishi, gipersteziya kuzatiladi. Ular protez qo'llanilgandan so'ng yoki uzoq vaqtdan keyin paydo bo'lishi va tananing har qanday umumiy kasalliklari (ovqat hazm qilish organlari, yurak-qon tomir tizimi, endokrin kasalliklar va boshqalar) fonida rivojlanishi mumkin.

Bemorni sinchkovlik bilan tekshirish, tegishli xomashyo materiallarni tanlash, protezning eng oqilona dizaynini tanlash, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini barcha klinik va laboratoriya bosqichlarida kuzatish, bemorning protezni qo'llash va parvarish qilish talablariga muvofiqligi, asosan asoratlarni oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.S.Sherbakov. Ortopedik stomatologiya. 1998 yil.
2. Атаходжаева, Г. А., Мирзалиева, А. А., & Султонов, С. С. (2020). Клинико-лабораторные особенности хронической сердечной недостаточности у больных мебаболическим синдромом. Academic research in educational sciences, (3), 541-550.
3. F.Sh.Fayzullayev. Ortopedik stomatologiyadan ma'lumotnoma. Toshkent - 2009 yil.
4. S.A.Naumovich. Ortopedik Stomatologiya darslik. Minsk - 2012 yil.
5. S.S.Agzamxodjaev. Ortopedik stomatologiyadan ma'lumotnoma. Toshkent - 2009 yil.
6. V.Yu.Kurlyandskiy. Ortopedik stomatologiya, 1977 yil.
7. X.I.Irsaliev. Ortopedik stomatologiya propedivtikasi. Toshkent- 2006 yil.

**Research Science and
Innovation House**

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

**INKLYUZIV TA’LIM AMALIYOTIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH
OMILLARI**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi PhD
Sadirova Kamola Giyozovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning ta’lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat’iy nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masaladir. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta’limni to‘laqonli o‘zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olish lozimligini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, huquqiy savodxonlik, integratsiya, muammolar.

Aloida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning ta’lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat’iy nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masaladir. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta’limni to‘laqonli o‘zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olish lozim. Oddiy sharoitlarda, umumiy ta’lim tizimida kamol topgan tibbiy jihatdan “nogironligi bo‘lganlik” mavqeiga ega o‘quvchilar olgan ta’limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg‘unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday umumiy tarzdagi tizim sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko‘nikmalar va kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo‘lgan shaxs o‘zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat turmush darajasining yuqorilashuvini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo‘l va omillari quidagilardan iborat: Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan barcha umumta’lim maktablarida

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarga nisbatdan do’stona munosabat shakllanadi.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan umumta’lim mакtablarida davlat ta’lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jihozlangan korreksion xonasi, maxsus texnik vositalar).

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan umumtalim mакtablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e’tiborga olinadi.

Korreksion ta’lim o‘quvchilarining ehtiyojlariga ko‘ra tabaqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’lim amalga oshirayotgan umumta’lim maktabiga o‘quvchilar ota-onalarning arizasi hamda psixologo-pedagogik komissiyalar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta’lim muassasalarining rahbarlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Inklyuziv ta’lim amalga oshirayotgan umumta’lim maktabdagi sinflarda integratsiya qilingan o‘quvchilar soni 3-4 nafardan oshirilmaydi hamda o‘quvchilarining umumiyligi soni 25 nafargacha deb belgilanadi

Yuqorida qayd etilgan va amalga oshirilgan ma’lum darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo‘lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

ota-onalar uchun nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o‘quv qo‘llanmalarning tanqisligi;

maxsus ehtiyojli bolalarni uyda yakka tartibda o‘qitish uchun maxsus mutaxassislarining yetishmasligi, yordamchi texnik vositalar bilan ta’minalash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasasida o‘qitish uchun huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqilmaganligi;

Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi (35–40);

umumta’lim muassasalarining binolari imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlari mos ravishda qurilmaganligi;

umumta’lim muassasalarida bolalarni psixologo-tibbiy-pedagogik yordamni olish imkoniyati yo‘qligi;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

umumta’lim muassasalari pedagoglari maxsus metodikalarni bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondira olmasligi; umumta’lim muassasalarida tiflo, surdotexnik vositalar mavjud emasligi; Umumta’lim pedagoglari, maktab rahbarlarini maxsus ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tmaganligi va umumta’lim maktablarini qo‘sishimcha kadrlar (logoped–maxsus pedagog, psixolog–ijtimoiy pedagog) bilan ta’minlanmaganligi integratsiyani amalga oshirish uchun salbiy munosabatni keltirib chiqarmoqda; nogironligi bo‘lgan bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo‘qligi; nogironligi bo‘lgan bolalarning maktabga kelishi uchun transport bilan ta’minalash masalalari hal etilmaganligi; chekka qishloqlardagi tashxis markazlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi; nogironligi bo‘lganlar aravachalari, qo‘ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko‘zoynaklar, travmatologik poyabzallarning yetishmasligi; davlat tomonidan kasb-hunarga yo‘naltirish, ish bilan ta’minalash, muammolari to‘laqonli hal qilinmaganligi; nogironligi bo‘lgan bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning kamligi; tevarak-atrof muhitning nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan salbiy munosabati; nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishslash mahallalarda yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi; nogironligi bo‘lgan bolalarning ota-onalarida huquqiy bilimning yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi; ta’lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi; inshootlarning Alovida e’tibor va yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi; malaka oshirish tizimida umumta’lim pedagoglarini maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha axborotga ega emasligi, qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va.h.k.

Maktabda va maktabgacha ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatmasdan, oilalar bilan muloqotda bo‘lib turmasdan, maxsus o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalamasdan ular uchun alovida sharoit yaratmasdan turib integratsiya yoki inklyuziv ta’limni amalga oshirish ijobiy natija bermaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni uyg‘unlashuvni, ularni ilk yoshdan agniqlash, tashxis qo‘yish, ta’lim olishi uchun tegishli o‘quv tarbiya muassasalariga yo‘llash, uzliksiz maxsus ta’limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqson bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, umumta’lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

muassasalarida ta’lim-tarbiya olayotgan, uy sharoitida o‘qitilayotgan bolalar ta’lim mazmunini ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota-onalar va pedagoglar uchun inklyuziv ta’lim yo‘nalishida o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta’limga zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni jalg qilish, internet tarmoqlari orqali masofada o‘qitishni tashkil etish jamiyatimiz va mutaxasislar oldida turgan muxim vazifadir.

Adbiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel,PF-5712-son
3. Nazarova D.A., Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika – T.: Innovatsiya-zifo, 2019.
4. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni oilada maktab ta’limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo‘llanma. –T.: A.Avlonyi nomidagi XTXQTMOMI, 2007

Research Science and Innovation House

COGNITIVE MECHANISMS OF FORMATION OF MEANINGS OF DERIVED WORDS

Mamatova Iroda Botiraliyevna

O’zJTU lingvistika yonalashi 2- kurs magistranti

Abstract. Within the broad field of word formation in English, the paper outlines particular available means for production of new meanings in established forms of words in the English language. More specifically, the paper presents two major types of production of complex forms (derivation and compounding), with accompanying definitions and generalisations which are substantiated with relevant examples which are further discussed and analysed.

Keywords: English word formation, derivation, compounding.

INTRODUCTION

English appears to abound in mechanisms that help enlarge its lexis. This paper aims at outlining a number of different available means of getting new meanings of words in established forms in English by discussing possible ways to get new meanings.

The purpose of this paper, however, is not to provide an exhaustive survey of English word formation, as this has already been done by many authors. The intention, in fact, is to provide an outline of particular types of word formation in English, focusing on derivation and compounding, which closely relate to new meanings of words in the forms that have already been established. More particularly, the paper presents derivation and compounding as two major types of production of complex forms [2].

MATERIALS AND METHODS

The paper provides an overview of the theoretical preliminaries in the field of word formation, including the definition, and it continues with the problems suggested by various authors, as there are several problems suggested by leading researchers in the field: the status and definition of word, establishment of rules, the morphology and the lexicon, the process of lexicalization, which are followed by the analysis and discussion on examples selected for the corpus in this study in the Analysis and Discussion section of the paper, with the focus on derivation and compounding

RESULTS AND DISCUSSION

Word formation is nowadays perceived to be such a confused area of study that it

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

would not be possible to write an uncontroversial introduction to the subject. Bauer recognises that much of the confusion in word formation studies is terminological.

He further acknowledges that, given the confusion that reigns at the moment, it should be borne in mind that virtually any theoretical statement about word formation is controversial.

The ways in which new words are formed, and the factors which govern their acceptance in the language, are generally taken very much for granted by the average speaker. To understand a word, it is not necessary to be aware of how it is constructed, or whether it is simple or complex, that is, whether or not it can be broken down into two or more constituents. Human beings are only able to use a word which they find new if they learn the new word together with objects or concepts it denotes. On the other hand, when new coinages are met, like shutup-ness, talkathon etc, our reactions to them may not be readily explained. We may find them acceptable and in line with our own feelings about how words should be built up, or they may seem in some way contrary to the rules.

There are several stages a lexeme goes through, ranging from the so-called nonce formation, through institutionalisation to, finally, lexicalisation. On its path, a lexeme may start as a new complex word-form designed by a speaker simply to meet some immediate need, the next stage emerging when the nonce formation starts to be accepted by other speakers as a known lexical item. Quite typical of this stage, Bauer argues [3], is

“...that the potential ambiguity is ignored, and only some of the possible meanings of the form are used (sometimes only one). Thus, for example, there is nothing in the form telephone box to prevent it from meaning a box shaped like a telephone, a box which is located at/by a telephone, a box which functions as a telephone, and so on.”

As it appears, it is only because the item is familiar that the speaker-listener knows that it is synonymous with telephone kiosk, in the usual meaning of telephone kiosk (institutionalisation).

Bauer concludes that the lexeme enters its final stage when it takes on a form which it could not have if it had arisen by the application of productive rules. This is the stage when the lexeme is lexicalised.

Both morphology and the lexicon are considered equally important ways of providing words in a language. Aronoff and Anshen give arguments to substantiate this claim:

“In fact, the two systems, i.e. morphology and the lexicon, do have a great a great

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

deal to do with one another, for two simple reasons...they both provide words, and...they are independent..."

The morphology of a language, they argue, as part of grammar, trades in structural matters, dealing primarily with the internal make-up of the potential complex words of a language. The lexicon, on the other hand, of any language, is a simple listing of items that exist in that language – the items that a speaker must know, as they are arbitrary signs, hence, unpredictable in a particular way.

A good illustration of the interaction includes a simple case of the plural noun in English. It is generally known that some plural forms come from the lexicon, whereas some originate from the morphology. In case of the former, plurals are said to be originating from the lexicon simply on account on their irregularity, and stored accordingly into the individual's mental lexicon, such as men or mice. The latter, on the other hand, encompasses plural forms coming from the morphology in case they are regular, like cups. A question arises here – how do speakers know not to say mans but men? Why is it the case that if a word has an irregular plural stored in the lexicon, there is no regular plural, the one coming from the morphology? There must be a blocking power that prevents the morphology from producing a regular plural just in case an irregular plural for the same word is in the lexicon already. The only possible conclusion we can arrive at here is that both lexicon and morphology appear to interact in making sure that only one form will be used.


Hudson [4] defines derivation as the creation of new words by the use of derivational affixes. Unlike inflectional affixes, which there are typically said to be eight in English (all are suffixes), and have very customary use, the use of derivational affixes is not obligatory. They tend to form words the meaning of which is somewhat narrower than that of their parts. A good illustration in English are result nouns, such as those ending in -ment, e.g. government, the result of governing.

An important aspect to look at when discussing derivational affixing is certainly heads and modifiers. According to Hudson, "...some derivational affixes seem to bring about changes of part of speech...". One understanding that can be given here is that derivational affixes are the heads of their words. However, prefixes, which are also derivational affixes, do not function as heads, and are in fact hardly ever word-class changing. It should be recalled that in a noun phrase, the head is a noun, and in a verb phrase the head is the verb – the head is the essential element of a phrase, towards which other elements are modifiers. Having said that, retirement would have the structure at

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

the left, and summarise would have the structure at the right, below.



Here, -ment is clearly a sort of N, which obligatorily combines with verbs, and as the head of its phrase naturally yields a noun. If -ise is a verb, as head of its construction with a noun the result is a verb.

Some English examples include (Hudson: 256):

- geosynchronous** (geo + syn + chron + ous) ‘in time with the orbit of the earth’ (of communications satellites which stay over one point on the surface of the earth). Geo- ‘earth’, -syn- ‘alike’, -chron- ‘time’, -ous ‘suffix forming adjectives from nouns’. Like typical derivations of new words in the technical fields, all the morphemes have Greek or Latin origins.
- Cabledom** (cable + dom) ‘the cable television business and its sphere of influence’. The suffix -dom is quite rare, probably most encountered in the word kingdom.
- Energiser** (energ(y) + is + er) ‘which causes to have energy’. The suffix –ise is added to nouns to form verbs with the meaning ‘cause to have the quality of the noun’. –Er is added to verbs to make noun instruments or agents, causes of the verb, as in walker ‘instrument to help walking’.

As it has been said, in its broadest sense, derivation refers to any process which results in the creation of a new word. Beard argues that backformation could also be discussed here, given that some types of derivation do not fit into derivational lexical paradigms holding for many other bases, like the following:

re-laser, out-laser, over-laser, ...laser-er, → laser-er-s, laser-er-‘s

LASER laser-ing → laser-ing-s, laser-ing-‘s(un)laser-able → (un)laser-ability

They argue that the result of misanalysis of words when a phonological sequence identical with that of an affix is misperceived as that particular affix is that a previously non-existent underlying base is extracted and stored in the lexicon via backformation.

CONCLUSION

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

The variety of mechanisms that English offers for the production of new words, which have been presented in the paper, as well as the numerous corresponding examples, have shown what qualifies English as a language medium which is universally intelligible. English thus continues to occupy the position of the world's first language.

REFERENCES

1. Adams, V. (2013), An Introduction to Modern English Word-formation. Eighth impression. Longman Group, London and New York
2. Anshen, F. and Aronoff, M. (2018), “Morphology and the Lexicon: Lexicalisation and Productivity”, In Spencer, A. and Zwicky, A. (eds), The Handbook of Morphology, Blackwell, Oxford, 238-247
3. Aronoff, M. (2016), Word formation in generative grammar, Mass.: MIT Press, Cambridge
4. Bauer, L. (2013), English Word-formation. Cambridge University Press, Cambridge
5. Chomsky, N. (2016), Reflections on Language. Fontana/Collins, Glasgow
6. Collins English Dictionary (2019), Millennium edition. HarperCollins Publishers, Glasgow

Research Science and Innovation House

**TILSHUNOSLIKDA ANOMASTIK TADQIQIOTLARNING ILMYI
AHAMIYATI**

O‘zDJTU Magistratura bo‘limi talabasi:

M.M. Maxsudova

Ilmiy rahbar: O‘zDJTU dotsenti f.f.b.f.d. (PhD):

G.I. Narmurodova

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda til tizimidai juda ko‘plab birliklarni tadqiq qilish ancha jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Mazkur maqolada ham muhim til birliklaridan biri hisoblangan onomastik birliklar haqida so‘z borar ekan, mazkur bo‘limning muammolari bilan shug‘ullanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. XX asrdan boshlab lingvistikaning mazkur sohasi bilan shug‘ullanish ko‘pchilik tilshunos olimlarning diqqat markazida bo‘ldi. Muallif mazkur maqolada onamastikaning kelib chiqishi va uning ilmiy ahamiyati haqida so‘z yuritgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, amaliy onomastika, onomastik birlik, toponimiya, antroponimiya, zoonimiya, kosmonimiya, astronimiya, realionimlar, mifonimlar, poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika.

Til tizimida atoqli otlar alohida o‘rin tutadigan lisoniy hodisa sanaladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek onomastikasi, xususan, toponimiya va antroponimiya sohasining ham yangi sifat darajasiga ko‘tarilishini ta’minladi. Atoqli otlarga e’tibor yanada kuchaydi. O‘zbek onomastikasini yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarish, uni yanada rivojlantirish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham “Onomastika”ni alohida fan sifatida oliv o‘quv yurtlarida o‘qitish atoqli otlar borasida yetarli bilim, malaka va ko‘nikmaga ega yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘zbek xalqining tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar, agoronimlar kabi atoqli ot turlari haqida tushunchaga egalik insonning ma’naviy hayotida, uning madaniy saviyasini ko‘tarishda, ilmiy va badiiy tafakkurini takomillashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyot salohiyatlari kadrlar yetishtirishni, texnologik jihatdan yangi bilimlar bilan qurollangan yetuk

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

mutaxassislargaga ega bo‘lishni talab etmoqda. Onomastik birliklar – atoqli otlar borasida kerakli mutaxassislarini tayyorlash faqat filologiya sohasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishgina emas, balki mafkuraviy, siyosiy-ma’rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi.

Onomastika – yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtida bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) ma’lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi [3; 60].

“Onomastika” deb nomlanuvchi bo‘limning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o‘rganish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma’lumotni berishdan iboratdir. Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. “Onomastika” tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Ma’lumki, onomastika tilshunoslikdagi har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronomiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi [5; 312].

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy* va *dialektal onomastika*, *odatdagи (amaliy)* va *poetik onomastika*, *zamonaviy* va *tarixiy onomastika*, *nazariy* va *amaliy onomastika* kabi turlarga bo‘linadi [1; 85].

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Shulardan biri bo‘lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo‘llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaningasosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning *qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik* xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o‘rganadi [2; 152].

Amaliy onomastika horijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiysi, transliteratsiyasi, an’naviy (talaffuz va yozilishiga ko‘ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, “*begona*” nomlarni o‘z tilida qanday yozish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlash, horijiy tillardan o‘zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o‘zlashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi. Til ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib, unda xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy qarashlari, milliy rasm-rusumlari, turmush tarzi, orzu-istiklari o‘z ifodasini topadi. Tilshunoslikda shunday lug‘aviy qatlamlar borki, ular ma’lum bir xalqning hayoti, urf-odati, tarixi bilan bog‘liqdir. Bunday lug‘aviy qatlamlarni o‘rganish shu xalq tarixi va etnografiyasini o‘rganishni taqozo qiladi [4; 17-20].

Tilshunos olimlarning fikrlariga ko‘ra “o‘tmish onomastikasini o‘rganish bilan bog‘liq murakkab muammolardan biri “tarixiy nomlar” tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini (tarixiy norma) zamonaviy (hozirgi davr) ismlar fondidan (sinxronik, ya’ni davriy norma) farqlash, chegaralash masalasidir. Chunki tarixiy (qadimiy) deb yuritiluvchi ko‘pgina nomlar hozirgi davr o‘zbek onomastikasida iste’molda mavjuddir. Bunday nomlar tilda paydo bo‘lish davri va yashash davriga, ya’ni stajiga ko‘ra tarixiy bo‘lsa-da, qo‘llanilishi, hayotiyligiga ko‘ra zamonaviy hamdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan onomastik tasniflar qo‘llanilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba’zilari qo‘llanish jixatidan universal harakterga ega bo‘lgani holda, ba’zi birlari esa ma’lum darajada chegaralangan bo‘ladi. Tadqiqotchi o‘z ishida ulardan qaysi birini qo‘llashi to‘plangan materialning xususiyatiga qarab belgilanadi. Nomlarni tasnif qilishda lingvistik, eksralingvistik nuqtai nazarga, shuningdek, ham lingvistik, ham

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

ekstraliningistik asosga tayanish mumkin. Shu bilan birga, atoqli otlarni tasnif qilishda yana bir nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ish tutish imkonini borligini qayd etmoqchimiz. Bu keyingi paytlarda nomshunoslik ishlarida qo‘llana boshlagan “onomastik birliklar” tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Atoqli otlarni onomastik birliklar nuqtai nazaridan tasniflash yuqorida qayd qilingan tasniflarning birinchisiga, ya’ni nom qanday obyektni anglatib kelishiga ko‘ra tasniflashga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ахманова О.С., Беленькая В.Д. Микротопонимика как особый аспект топологии наименований // Вестник МГУ. Серия: филология. – 1966. – №3, - С.85.
2. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Т.: Фан, 1991. – 152 б.
3. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. – Б.60.
4. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.
5. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси.–Т.: Ўқитувчи, 1994.– 312 б.

Research Science and Innovation House

RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Nazarova Zarina Qodirjonovna
Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot taraqqiyot omillari, raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi hamda rivojlanishi, shuningdek bu borada olib borilayotgan islohotlar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, elektron tijorat, onlayn to‘lov, infratuzilma, kiberxavfsizlik, avtomatlashtirilgan reestrlar, blokcheyn texnologiyalar.

KIRISH Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmsandan erishib bo‘lmaydi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Hozirgi vaqtida jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi, kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalarini tashkil etish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi, iste’molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi va shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning keng qamrovli rivojlanishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob’ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o‘sirish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi [2]. Davlatning o‘z fuqarolari uchun elektron xizmatlarni ko‘rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismibo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda ushu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergen ma’lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiyligi o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog‘iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha 237 ta ob’ektda magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o’tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas [13]. Blokcheyn texnologiyalari tomonlarning hech qanday vositachisiz bitimlarni xavfsiz, ishonchli amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Uni ko‘pchilik kriptovalyuta texnologiyasi sifatida bilsa-da, aslida blokcheyndan raqamli identifikatsiya, egalik va mulkiy huquqlar ximoyasi, to‘lov tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ethereum kabi blokcheyn bazasida ishlaydigan ochiq manbali platformalar an’anaviy huquqiy jarayonlarsiz har qanday aktivlar bo‘yichabitimlar tuzish, bank xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi. Hozirda jahoning turli mamlakatlarida moliyaviy texnologiyalar, yer resurslarini boshqarish, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarida blokcheyn tizimidan foydalaniadi. Blokcheyn tizimi har qanday sohaning shaffoflik darajasini oshiradi, korrupsiya holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarining imkoniyatlari nihoyatda istiqbolli hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

XULOSA Hozir butun dunyo bo‘ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT vositalaridan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo‘lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug‘dirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko‘lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M.:, Infra-M, 2019 yil.
2. “Taraqqiyot strategiyasi”markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov nutqidan. 2020.
3. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo ‘llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
4. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta’lim sifati kafolatidir. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум, (4), 83.



**Research Science and
Innovation House**

RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI RIVOJI: MUAMMO VA YECHIMLARI

Nazarova Zarina Qodirjonovna

Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi, dunyo iqtisodiyoti va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, raqamli platformalarning rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. Tahlil asosida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ayrim takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Global Internet Protokol (IP) trafigi, innovatsion platformalar, onlayn platformalar, raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, raqamli transformatsiya, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, robototexnika, sun’iy ong, “super platforma”lar, tarmoq effekti, tranzaksion platformalar.

KIRISH Raqamli inqilob bizning hayotimiz va jamiyatlarimizni misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirib, 25 yil[1] ichida ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir. So‘nggi yillarda biznes va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to‘lqini raqamli texnologiyalarning yangi avlodni, ya’ni sun’iy ong, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari yordamida ro‘y bermoqda. Yangi texnologiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga katta hissa qo‘sishi mumkin, ammo biz kutilgan ijobiy natijalarni ololmasligimiz mumkin.

Iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagilash chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraufdanding va boshqa turdagilash sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir [5]. Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy resurslar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat. Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e’tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog‘i lozim. Tadqiqot metodologiyasi Maqolada raqamli platformalarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini o‘rganishda qiyosiy tadrijiy tahlil, yuqori va quyi o‘rinlardagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi, transmilliy kompaniyalarning raqamli platformalar asosida rivojlanish tendensiyalari tahlilida statistic matematik, hududlar kesimida Internet qamrovi statistik guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi asosida internet trafiklaridan foydalanish holati dinamik tahlil asosida yoritib berilgan. Raqamli iqtisodiyotning quyidagi afzalliklari ajratiladi [6]: • mehnat unumidorligini 40 %gacha oshirishi taxmin qilinadi; • raqamli iqtisodiyot juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga ega; • onlayn platformalar orqali sotiladigan yangi ish shakllarining yuzaga kelishi; • raqamli transformatsiya maxsus xizmatlar uchun savdo infrastrukturasining o‘zgarishi; • sanoat mahsulotlari eksporti endilikda AKT mahsulotlari va xizmatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda; • raqamli iqtisodiyot juda qisqa vaqt ichida ulkan boyliklarni keltirib chiqardi, ammo bu boylik oz sonli shaxs, kompaniya va mamlakatlar atrofida to‘plangan. Amaldagi siyosat va qoidalar asosida ushbu traektoriya davom etishi mumkin, lekin bu tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga ushbu iqtisodiyotning ayrim ziddiyatli tomonlari ham mavjud. Ular quyidagilar: • yangi texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt, muqarrar ravishda mehnat bozorida katta o‘zgarishlarga olib keladi, jumladan, ba’zi tarmoqlarda ish o‘rinlarining yo‘qolib ketishi va boshqalarida keng miqyosda imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi; • raqamli iqtisodiyot bir qator yangi va turli xil ko‘nikmalar, ijtimoiy himoya siyosatining yangi avlodni, ish va bo‘sh vaqt o‘rtasidagi yangi munosabatlarni talab qiladi; • raqamli iqtisodiyot, shuningdek, kiberxavfsizlik buzilishlaridan tortib noqonuniy iqtisodiy faoliyatga ko‘maklashish va shaxsiy hayotning maxfiy tushunchalariga qadar yangi xavflarni keltirib chiqaradi. Raqamli iqtisodiyot deyarli hamma narsaga oid juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga asoslangan holda katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda [7].

XULOSA Raqamli transformatsiya bugungi kunda, ayniqsa hozirgi pandemiya sharoitida juda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni va jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini anglagan holda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: • Raqamli iqtisodiyotda ilgarilab borayotgan davlatlarda qo'llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o'rganish; • mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning me'yoriyhuquqiy asoslarini yaratish; • raqamli iqtisodiyot uchun zarur infratuzilmani yaratish, avvalo Internetga kirish imkoniyati cheklangan yoki umuman mavjud bo'lмаган hududlarni tizimga ulash; • raqamli iqtisodiyot uchun zarur mutaxassis-kadrlarni tayyorlash tizimi faoliyotini takomillashtirish; • hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademiya, ilmiy hamjamiyat va texnologiya sohasi yangi echimlarni topish uchun birgalikda tadqiqot ishlarini rivojlantirish; • raqamli ishlab chiquvchilar strategiyalari va globallashuvning kelajakdagi konturlarini qayta aniqlashtirish uchun yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va intellektual yetakchilikni kuchaytirish zarur.

REFERENCES

1. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
2. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
3. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
4. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital economy report 2019.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Digital_economy

**Research Science and
Innovation House**

O‘QITUVCHILARDA PSIXOLOGIK ONGNING SHAKLLANISHI

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi**

Annatatsiya: Mazkur maqolada, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat subyekti bo‘lgan o‘qituvchi shaxsiga xos psixologik xususylari yoritiladi. Shuningdek bu maqolada ong haqidayam to‘liq malumot berilib, yoritilgan.

Аннотация: В данной статье выделены психологические особенности учителей, которые являются субъектом педагогической деятельности. Эта статья также дает полную информацию о сознании.

Annotation: In this article, the psychological characteristics of teachers, which are the subject of pedagogical activity, are highlighted. This article also gives full information about consciousness.

Kirish so‘zlar: ong, psixologik chidamlilik, psixik obraz, ong mexanizmi, psixologik ong, planar rasm, factor, psixologik ta’sir.

Ключевые слова: сознание, психологическая устойчивость, мысленный образ, механизм сознания, психологическое сознание, планарный образ, фактор, психологическое воздействие.

Key words: consciousness, psychological resilience, mental image, mechanism of consciousness, psychological consciousness, planar image, factor, psychological influence.

KIRISH

Ong—bu obyektiv borliqni aks ettirishning yuksak faqat insonga xos bo‘lgan shaklidir. Ong uzlusiz almashib turadigan aqliy va hissiy jarayondir. Binobarin, hissiy holatlar ba’zi miyyasi rivojlangan hayvonlarda ham kuzatish mumkin. Inson va hayvonlar psixikasining tuzilishi jihatdan bir xil bo‘lishi mumkin, lekin aynan psixik obrazlarni tashkillashtirish mexanizmi va ular bilan munoisabatga kirishuvchi jarayon insonda shunday fenomen, ya’ni ong borligini bildiradi. Ong nimasi bilan farqlanadi? Birinchidan: ong har doim faol holatda. Ikkinchidan: intensiv. Ongning guruhiy xossalariga: o‘z-o‘zini kuzatish, qobiliyati undan tashqari undan tashqari ongning motivatsion baholovchi xarakterini kiritish mumkin. Ong subyektning dunyo va undagi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

o'rni haqidagi tasavvuri, uning ichki aqliy tajribasi haqida hisobot berish qobiliyati bilan bog'liq va birgalikdagi faoliyatni oqilona tashkil etish uchun zarurdir. Ong aqliy faoloiyat shakli va oliy nerv faoliyati elementi, uning asosini miyya tashkil etadi.

Ong—bu inson miyyasining biologik funksiyasi degan fikr mavjud bo'lib, u odamga atrofidagi dunyo va o'zi haqida qandaydir tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Ong mexanizmi inson evolyutsiyasi natijasida shakllangan. Ushbu mexanizmning fiziologiyasi to'liq tushuntirilmagan. Nevrologlar orasida ong ma'lum darajada bir qator hayvonlarga, sutevizuvchilar, qushlar, sefalopodlar va boshqalarga xosdir, degan fikr mavjud. Ong keng ma'noga ega bo'lgan tushunchadir. Ong quyidagilarni anglatishi mumkin:

- Behush holatlardan (chuqur uyqu, hushidan ketish va boshqalar) farq qiladigan "uyg'onish" holati;
- O'z tajribalari va xatti-harakatlari to'g'risida akademik E.N.Sokolov ongni "shaxsiy (subyektiv) tajribalar oqimi, ya'ni tasvirlar, fikrlar, niyatlar va his-tuyg'ularning o'zgarishi" deb ta'riflangan. Miyya tuzilmalarida paydo bo'ladigan ong bu tashqi kuzatuvchiga erishib bo'lmaydigan shaxsiy xususiyatlardir.

Madaniy-tarixiy yondashuvga ko'ra, ongning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy-tarixiy amaliyot elementlari obyektiv voqelik va ong o'rtasidagi oraliq bo'g'in bo'lib, dunyo haqida obyektiv (umumi qabul qilingan) g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi.

"Psixologik ong" so'zi turkey tilda "psixologik" ma'nosini bildiradi. Bu ibora ko'pincha hissiy, aqliy yoki ruhiy salomatlik haqida gapirganda ishlataladi. Psixologik ong—bu shaxsning hissiy va ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi omillar haqida gapirganda muhim atama. Psixologik jihatdan sog'lom va muvozanatli bo'lish umumi farovonlik va salomatlikni saqlash uchun muhimdir. Shuning uchun psixologik muammolarga e'tibor qaratish va kerak bo'lganda mutaxassislardan yordam so'rash juda muhimdir.

O'qituvchilar uchun psixologik ong juda muhimdir, chunki ularga talabalar bilan muloqot qilish, ularni qiziqtirish va rag'batlantirish masalalari kelib chiqadi. Psixologik ong orqali o'qituvchilar talabalar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirish, ularning motivatsiyasini oshirish va o'rganish jarayonlarini rag'batlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar psixologik ong to'g'risida o'rganish orqali ular o'sish jarayonlarini tushunish, talabalarni maqsadlariga erishishga yo'naltirish va maslahatlar berishga

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

imkon beradi. Psixologik ong o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotda yaxshi va samarali bo‘ladi.

O‘qituvchilar o‘rganish jarayonlari va talabalar bilan muloqotlarni yaxshi tashkil etish uchun psixologik ongning texnik qo‘llanilishi juda muhimdir. Bunday qo‘llanmalar orqali o‘qituvchilar o‘rganish jarayonlarini mustahkamlash, talabalarni rag‘batlantirish va ularning samimiyatini yuksaltirishga yordam etishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonlari va o‘quv natijalarini yaxshilashga qaratilgan mahsulotni oshiradi.

Aksariyat o‘qituvchilarning psixologik chidamliligi juda yuqori, ammo doimiy stress ostida ishslash, o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va oilalar bilan muloqot qilish kabi omillar ularning psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois maktab ma’muriyati va tegishli muassasalar o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashlari juda muhim. Ta’lim sohasida ishlayotganlarga muntazam ravishda psixologik yordam ko‘rsatilishi va stressni boshqarish bo‘yicha treninglar tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘rtasida hamjihatlik va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilishi kerak. Shu tariqa o‘qituvchilarning psixologik salomatligi mustahkamlanar ekan o‘quvchilar uchun yanada sog‘lom va yanada qulayroq ta’lim muhiti yaratilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topadi. K.Marks “Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir” deb yozgan edi. Ongning strukturasiga muhim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o‘z bilimlarini doimo boyitib boradi. K. Marks “kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o‘zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o‘zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning harakterini belgilab beradi va kishi o‘z irodasini ana shu maqsadga bo‘ysundirish lozim” deb ta’kidlagan edi.

Jeyms “ong oqimi” metofarasidan foydalangan, u ruhiy hodisalarning dinamikasini qamrab olgan. Jeyms uchun ong o‘zgaruvchan sharoitlarga omon qolish uchun tabiat tomonidan yaratilgan moslashuvchan harakat edi. V.Jeymsning fikricha, ong planar rasm emas, balki faqat qisqa muddatli xotira qonunlari asosida to‘xtatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi o‘zgaruvchan, doimiy funksional harakatlar oqimi.

O‘qituvchilarda psixologik ongning rivojlanishi o‘quvchilarga maslahat berish va ularning ma’lumot olish jarayonida ulardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Psixologik yordam o‘qituvchilarga o‘quvchilarni o‘rganish, maslahat berish, motivatsiya berish, qo‘llab-quvvatlash, muammolarni yechish yoki hal qilish, yaxshi o‘qish uchun fursatlar yaratishga yordam berishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar psixologik ongni rivojlantirish orqali o‘quvchilarni eng yuqori darajada o‘rganishga yordam bera oladi va ularning o‘zlarini rivojlantirishiga ko‘maklashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O‘qituvchilarda psixologik ongni rivojlantirishda quyidagi pedagogik qarashlarni amalga oshirishlari mumkin:

1. O‘quvchilarga qarshiadolatli va munosabatkor bo‘lish: o‘qituvchilar o‘quvchilarga qarshiadolatli bo‘lishlari ularning ruhiy holatlarini tushunishlariga va ular bilan o‘zaro xushmuomalada bo‘lishlariga yordam beradi.
2. Qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilar o‘quvchilarga qo‘llab-quvvatlovchilar sifatida yordam bermasliklari ularning onglarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
3. Motivatsiyalash: o‘qituvchilar o‘quvchilarni motivatsiyalash, ularning maqsadlarini va maqsadlariga erishishlarini ta’minlashlari borasida ko‘rsatgichlar berishi mumkin.
4. Iqtisodiy talablarni tushunish: o‘qituvchilar o‘quvchilarning finansiyaviy holatlari, oilaviy muammolari yoki boshqa turdagি muammo va zararli ta’sirlarni tushunishlari ularning psixologik onglarini rivojlantirishda muhimdir.
5. O‘quvchilarning qoniqishlari va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishlarini tushunib olib, ularning qonuniy va ijtimoiy qonunlar bilan birga qabul qilingan o‘rtacha qatlamiga ko‘rsatishlari kerak.

Bu yo‘l bilan o‘qituvchilar o‘quvchilarning psixologik onglarini rivojlantirishda yordam berishlari va ularni o‘zlarining potensiallarini o‘rganish va oliy natijalarga erishishiga yo‘l qo‘yadi.

O‘qituvchilar psixologik ongga nazar tashlashlari uchun vaqt va e’tiborga ega bo‘lishlari muhimdir. O‘qituvchilarda psixologik ongning shakllanishi bir nechta faktorga bog‘liq bo‘ladi. Asosiy faktorlarga quyidagilarni aytib o‘tish mumkin:

1. Isyonlar: o‘qituvchilar ish joyida yuzaga keladigan murojaatlar, harajatlarni masalaga olishlari mumkin. Bu holatlar o‘qituvchilarda depressiya tug‘ilishiga olib kelishi mumkin.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

2. Ish va hayot ta'siridan qo'rqish: o'qituvchilar ish haftasida keladigan keng ma'lumot, murojaat va maktublarga javob berishlari.

3. Stress: o'qituvchilar turli zararli vaziyatlarda ishlashlari mumkin, misol uchun har bir kirishuvda turli xavf-xatarlarga duch keladilar. Bu ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarda psixologik ta'sir ko'p omillarga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, o'qituvchilarning ish yuki, o'quvchilarning xatti-harakati, ma'muriyat tomonidan ko'rsatiladigan yordam kabi omillar o'qituvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlari ham bu ta'sirlarni aniqlashi mumkin. Psixologik ta'sirlar ko'pincha stress, tashvish va hissiy charchoq kabi muammolar bilan bog'liq. Shuning uchun ham, o'qituvchilarning ehtiyojlarini qondirish, qo'llab-quvvatlash va himoya qilish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim tizimlarida sog'lom ish muhitini yaratish o'qituvchilarni yanada samarali va baxtli qilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'mnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchilarda psixologik ong juda ham muhim. Ular bu bilan nafaqat o'quvchilarni, balki ularning ota-onalarini, hamkasblarini, atrofidagilarini va eng avvalo, oilasidagilarini tushunishi mumkin. Bu ular bilan munosabatga kirishishiga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Edvard Bredford "Ongning funksional psixologiyasi". 2001-yil.
2. S.K.Mangal "General Psychology". 2013-yil.
3. O.S.Qodirov "Umumiyl psixologiya". 2022-yil.
4. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov "Ijtimoiy psixologiya". 2023-yil.
5. A.K.Markova "psixologiyada professionalism". 1996-yil.

Javohirlarga teng Berdaqning asarlari

Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

2-bosqich talabasi

sarvinozsanjarovna17@gmail.com

ANNOTATSIYA

Biz mazkur maqola orqali Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti asoschisi Berdaq taxallusi bilan ijod yuritgan Bedimurod Qarg‘aboy o‘g‘lining hayot yo‘lini hamda ijodini yaqindan bilib olamiz.

KALIT SO‘ZLAR

Adib, baxshi, shoir, qoraqalpoq kuychisi, mutafakkir, haqiqat, ozodlik, mardlik, mustaqillik, insonparvarlik.

ANNOTATION

Through this article, we will get to know the life path and creativity of the son of Berdimurad Kargaboy, the founder of Karakalpak classic literature, who created under the pseudonym Berdaq.

KEY WORDS

Writer, poet, karakalpak singer, thinker, truth, freedom, courage, independence, humanitarianism.

АННОТАЦИЯ

Благодаря этой статье мы познакомимся с жизненным путем и творчеством сына Бердымурада Каргбоя, основоположника каракалпакской классической литературы, творившего под псевдонимом Бердак.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Писатель, поэт, каракалпакский певец , мыслитель, правда, свобода, мужество, независимость, гуманизм.

KIRISH

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

buyuk madaniyatimizga munosib adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz .

Buyuk shoir Berdaqning ijodi va hayot yo‘lini chuqur o‘rganmog‘imiz biz uchun barcha adabiyotshunoslar ,kitobxonlar uchun ,yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb bilamiz. Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she’rlarini zamonaviy tarzda kuylanishi, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavxalarni ko‘plab tillarda tayyorlash hamda kino filmlar orqali Berdaqning faoliyatini yoritsak maqsadga muvofiq bo‘kadi . Men turli sinovlarda va kurashlarda toblangan, iymon irodasi mustahkam xalqimizning aql- zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.

SHAVKAT MIROMONOVICH MIRZIYOYEV.

ASOSIY QISM

Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li taxallusi Berdaq qardosh xalqimiz ya’ni qoraqalpoq xalq adabiyotining asoschisi . 1827-yil Mo‘ynoq tumanida tavallud topgan. Avval ovul mакtabida , so‘ngra madrasada ta’lim olgan. So‘z mulkining sultonи Alisher Navoiy ,Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini chuqur o‘rgangan.U tarixni va xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan .Yozgan barcha asarlai va qo‘lyozmalarida tenglik, insonparvarlik,adolat hamda vatanparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Berdaqning she’r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi . Ayniqsa Xiva xonligi va Chor Rusiyasi hukmronligi davrida oddiy xalqqa nisbatan o‘tkazilgan zulm-zo‘rliklar shoirning bir qator she’rlarida ochiq tasvirlab berilgan .Shuning uchun u o‘z zamonasidagiadolatsizlikdan , xon fitnalaridan, soliq yig‘uvchilardan, miroblarning o‘zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi, inson , inson qancha mehnatkash bo‘lmasin muhtojlikdan chiqolmasligidan zorlanadi.She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qiladi.

Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quyidagi ”Yordam ber” she’ri orqali ,baxt haqida fikr yuritdi. ”Izladim” she’ri orqali esa odil podshoni orzu qiladi .Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi .Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Ijodi serqirraligi ,asarlarining g‘oyavuy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi .

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi(1998). Shoir tug‘ilgan joy Bo‘zatovda ham haykali o‘rnatilgan . Nukusda ham haykali qo‘yilgan, musiqali drama teatri, ko‘cha va mакtabga Berdaq nomi berilgan. Berdaq shoirlik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo‘q , iste’dodli shaxslardan bo‘lgan. Zamonasining taniqli va barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan ,elardog‘idagi shoirlardan bo‘lgan.



XULOSA

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsam Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan adbiy ,ijtimoiy- siyosiy va falsafiy g‘oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o‘zgardi.Berdaq milliy muzeyi tashkil etildi .

Har bir xalqning o‘zligini , milliy mavqeい va qadr –qimmatini dunyoga tanituvchi ulug‘ farzandlari bo‘ladi. Ularning qoldirgan o‘lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o‘tmishini , balki buguni va kelajagini ham belgilaydi . Biz bu ulug‘ Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq , balki butun o‘zbek xalqimizning ana shunday ardoqli farzandi sifatida ko‘ramiz. Ilm- fan taraqqiy etmagan davlatda erkin va farovon jamiyat qurib bo‘lmaydi. Berdaqning hayot yo‘li va ijodi haqida qancha ko‘p so‘zlasakda shuncha oz. Shuning uchun Berdaq hayoti va ijodi haqida

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

nafaqat yoshlarimizga balki jamiyatning har bir qatlamiga tanishtirib o‘tishimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar.

1. *O‘zME.birinchi jild. Toshkent,2000-yil
2. *B.Quronboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti ,T.,1986
3. *www.president.uz
4. *Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo‘llanma. Nukus 2017-yil.
5. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqidan. 30.08.2020-yil
6. *Tanlangan she’rlar 1958-yil T;1976

**Research Science and
Innovation House**

XXI asr ko‘nikmalari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish (4K modeli asosida)

Ergasheva Mahbuba Ne’mat qizi

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada siz hozirgi kunda o‘quvchilar 4k modulida nima sababdan ishlashi kerakligini bilib olasiz va uning noananaviy darslarga yo‘l ochishiga keng imkoniyatligidan xabardor bo‘lasiz.

Abstract. In this article, you’ll learn why students should be working on the 4k module today, and how it can pave the way for non-traditional lessons.

Абстрактный. Из этой статьи вы узнаете, почему учащимся следует работать над модулем 4К уже сегодня и как он может открыть путь к нетрадиционным урокам.

Hozirgi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olayapdilar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. Chunki o‘quvchining ongida axborotlar taassurotlar bilan amaliyotga bog‘langan holda amalga oshishi uzoq vaqtli va samarali bilimlarga sabab bo‘ladi. Balki o‘quvchilarning xohishini, imkoniyatlarini va qobilyatlarini o‘stirishga qaratilgan. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarini ham o‘rganadi. Shunday ekan 4K nimalarni o‘z ichiga olishini quyidagi ta’riflardan bilib olasiz.

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi. O‘z fikrlarini yakka holda bayon qilishga qiynaladigan o‘quvchilarga jamoadoshlari bilan, jamoa ishonchidan kuch olgan holda bayo qilish oson va qulay. Jamoa ishonchi orqali o‘quvchilardagi yo‘qolib ketayotgan qobilyatlarni asrab qolish mumkin.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til va ichki olamini bog‘liqlida ko‘rib chiqadi. Insonni o‘z-o‘zini anglay olishi vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. Vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to‘g‘ri idrok etish va baholashdan iborat

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Aynan mana shu qismda yangi g‘oyalar dunyoga keladi. O‘quvchilardagi yangilikka bo‘lgan xohishni o‘sirish yangiliklarga sabab bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rnlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo‘q deb aytish noto‘g‘ri. Yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig‘ilgan 300 dan ortiq trener o‘qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o‘qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘sishida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Fikrlash. ishlash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining — Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida sog‘lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘sishida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak ya’ni o‘quvchilarning yangilikka bo‘lgan ishtoyoqlarini yanada o‘stirishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shuki o‘quvchilarning ishtyoqlarini yanada kuchaytirish va bu orqali yangiliklarga ega bo‘lishdan iborat. Yangi avlod darsliklarda ham aynan

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Azizzxo’jayeva.N.N. Pedagogik texnologiya va mahorat.-Toshkent. 2006.
2. Hasanboyev.J Pedagogika,-“Nosher” 2011
3. Ziyo.net

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**
Issue 3. March 2024

**Телекоммуникация соҳасида кириш занжирларининг асосий
кўрсаткичлари**

Халманов У.Р¹

(Жizzax давлат педагогика университети, Ўзбекистон)

Аннаотация: Ушбу мақола ҳозирги кундаги ривожланиб бораётган телекоммуникация соҳасига қизиқиши, ва уни энди ўрганишни бошловчилар учун мўлжалланган. Замонавий телекоммуникация тизимлари ҳар қандай масофага, берилган сифат параметрлари билан, турли хабарларни узатишни таъминловчи ҳар хил техник воситаларнинг мураккаб мажмуасидан иборат. Телекоммуникация тизимларининг асосини, намунавий каналлар ва трактларни шакллантириш учун мўлжалланган, электрик, толали оптик ва радио линиялари бўйича ишловчи кўп каналли узатиш тизимлари ташкил этади. Мақолада антеннадан келаётган радиосигналлар энергиясини ўзидан кейин келадиган занжирга мумкин қадар исрофсиз узатишга имконият туғдириб бериш, кириш занжирлари ҳақида етарлича маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Телекоммуникация тизимлари, антенналар, сифим, индуктивлик, кириш занжирлари, тебранма контурлар, узатиш коэффиценти.

Аннотация: Эта статья предназначена для тех, кто интересуется развивающейся областью телекоммуникаций и новичком в ней. Современные телекоммуникационные системы состоят из сложного набора различных технических средств, обеспечивающих передачу различных сообщений на любое расстояние с заданными параметрами качества. Основу телекоммуникационных систем составляют многоканальные системы передачи, работающие по электрическим, оптоволоконным и радиолиниям, предназначенные для формирования модельных каналов и трактов. В статье дано достаточно информации о входных цепях, которые позволяют передавать энергию радиосигналов, поступающих от антennы, в цепь, идущую после нее, максимально не тратя ее впустую.

Ключевые слова: Телекоммуникационные системы, антенны, емкость, индуктивность, входные цепи, колебательные контуры, коэффициент передачи.

Abstract: This article is intended for those interested in and new to the emerging field of telecommunications. Modern telecommunication systems consist of a complex set of various technical means that ensure the transmission of various messages over

¹ Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo‘lim “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasining matematika o‘qituvchisi Xalmanov Ural Rasulovich

any distance with specified quality parameters. The basis of telecommunication systems are multi-channel transmission systems operating via electrical, fiber optic and radio lines, designed to form model channels and paths. The article provides enough information about input circuits that allow you to transfer the energy of radio signals coming from the antenna to the circuit coming after it, without wasting it as much as possible.


Key words: Telecommunication systems, antennas, capacitance, inductance, input circuits, oscillatory circuits, transmission coefficient.

Кириш занжирлари сифим C ва индуктивлик L дан ташкил топган тебранма контур бўлиб антенна билан ўзидан кейинги келадиган занжирни ўзаро боғлаб туради. Кириш занжирига қуийдаги талаблар қўйилади:

Антеннадан келаётган радиосигналлар энергиясини ўзидан кейин келадиган занжирга мумкин қадар исрофсиз узатишга имконият тутдириб бериш:

- ✓ Антеннадан келаётган турли частотали радиосигналлар орасидан фойдали сигналларни аниқ ва бенуқсон ажратиб олиш;
- ✓ Айрим сабабларга кўра тебранма контурда ҳосил бўлган ички ва ташқи ҳалақит сигналларини мумкин қадар йўқотиши.

1-расмда кириш занжирларининг тузилиши кўрсатилган. 1 - кириш занжири билан антенна орасидаги алоқа элементли; 2 – тебраниш контури; 3 – тебраниш контури билан ундан кейин келадиган занжир орасидаги алоқа элементи.



1 - расм.

Антенна қабул қилган радиосигнал ва шовқин сигналлари алоқа элементи 1 орқали ўтиб тебранма контур 2 га кириб келади. Тебранма контур олдиндан белгилаб қўйилган фойдали сигнал частотасига созланган бўлади. Шу сабаб тебранма контурдан фойдали сигнал ўтиб, у сигнал ўзидан кейинги занжирга узатилади. Шу йўл билан фойдали сигнал шовқин сигналларидан қисман тозаланади. Алоқа элементи 1, антенна қаршилиги билан кириш занжирининг кириш қаршилиги, алоқа элементи 3 эса, тебранма контур 2 нинг чиқиши қаршилиги билан ўзидан кейинги келадиган занжирнинг кириш қаршилигини мослаб туради. Демак, кириш занжирини антенна қаршилигини ўзидан кейинги


келадиган занжирнинг кириш қаршилиги билан ўзаро мослаб берадиган мословчи трансформатор ҳам экан деб қарашибумкин.

Кириш занжирлари таркибидаги тебранма контурларнинг сонига қараб бир, икки ёки кўп контурли бўлади. Антенна билан ўзаро боғланишга қараб улар:

- Ташқи ва ички сифим алоқаси (расм. 2, а,б- расм);
- Индуктив алоқали (2, в-расм);
- Автотрансформатор алоқали (2, г-расм);
- Сифим ва индуктив алоқали (2, д-расм);
- Тўғридан-тўғри алоқа (2, е-расм) бўладилар

Тўғридан – тўғри алоқали кириш занжирларига антеннанинг таъсири салбий бўлади. Шу сабаб бундай алоқали схемалар қўлланилмайди.


Кириш занжирига кириб келган шовқин, сигналларининг таъсирини йўқотиш учун махсус фильтрлар ишлатилади.



2- расм.

3. – расмда фильтрли кириш занжирларининг схемалари кўрсатилган.

3,а –расмда фильтр кетма-кет, 3,б – расмда эса параллел уланган.



Кириш занжирларининг асосий кўрсаткичлари

Кириш занжирларининг қўйидаги асосий кўрсаткичлари бўлади:

Узатиш коэффициенти. Кириш занжирининг чиқишидаги кучланишни антеннанинг электр юритувчи кучига бўлган нисбатига кириш занжирининг кучланиш бўйича узатиш коэффициенти деб аталади, яъни

$$K_u = U_{ЧИК}/E_A \quad (1).$$

Кириш занжирининг чиқувчи сигнал қувватининг антенна қувватига нисбатан бўлган нисбатига кириш занжирининг қувват бўйича узатиш коэффициенти деб аталади, яъни:

$$K_p = P_{ЧИК}/P_A \quad (2).$$

Узатиш коэффициентлари тебранма контурнинг резонанс холатида ўзининг энг катта қийматига эришади. Шу сабабдан бу узатиш коэффициентларини кириш занжирларининг резонанс узатиш коэффициентлари деб хам аталади. Бу коэффициентлар қанчалик катта бўлса қабул қилувчи курилмаларнинг сезгирилиги шунчалик юқори бўлади.

Танловчалик коэффициенти. Кириш занжирининг танловчанлик коэффициенти, тебранма контур резонанс частотасига созланганда унинг узатиш коэффициентлари, контур носозланиб қолган пайтидаги узатиш коэффициентларидан қанчалик катта эканлигини аниqlаб беради. Танловчанлик коэффициентини қўйидагича ифода этилади:

$$\sigma = K_o / K_{df}. \quad (3),$$

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**
Issue 3. March 2024

бу ерда, $\Delta f = f_0 - f$ га тенгдир.

Танловчанлик коэффициенти занжирнинг резонанс характеристикасига боғлиқдир. Шунинг учун ҳам танловчанлик коэффициентини яхшилаш мақсадида тегишлича аслликка эга бўлган тебранма контурлар танланади.

Частота доирасини чегаралаш ёки қопловчи коэффициенти. Резонанс частотасининг энг катта – максимал қийматини унинг энг кичик - минимал қиймати бўлган нисбати частотаси доирасини чегаралаш ёки қопловчи коэффициенти деб аталади, яъни:

$$K_{\psi} = f_{0\max}/f_{0\min} \quad (4).$$

Кириш занжирининг частота ўтказиш полосаси. Бу коэффициент кириш занжирининг кучланиш бўйича узатиш коэффициентини унинг олдиндан берилган қийматидан ўзгармайдиган ҳолатда сақлаб турувчи частота оралиғидир. Бу коэффициент кучланиш бўйича узатиш коэффициентининг энг катта қийматини 0,7 сатхи бўйича аниқланади.

Кириш занжири параметрларининг номутаносиблик коэффициенти. Кириш занжирининг бу коэффициенти радио тўлқинларини қабул қилувчи курилмалар носозланиб қолганда уларнинг асосий характеристик параметрлари қанчалик ўзгариб қолганлигини кўрсатади. Уларнинг ифодалари қуйидагичадир:

а) узатиш коэффициенти бўйича;

$$K = K_w/K_I \quad (5).$$

б) танловчанлик коэффициенти бўйича;

$$K_{\sigma} = \sigma_2/\sigma_1 \quad (6).$$

в) частота ўтказиш полосаси бўйича

$$K_{\psi_{ul}} = \Pi_2/\Pi_1 \quad (7).$$

Бу коэффициентлар мумкин қадар бирга яқинлашгани маъқул. Чунки улар бирга яқинлашганида характеристик параметрларнинг ўзгариши сезиларли бўлмайди.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Р.И. Исаев, Р.К. Атаметов, Р.Н. Раджапова. Телекоммуникация узатиш тизимлари. -Т.: «Fan va texnologiya», 2011, 520 бет.
2. У. Халманов “Хусусий ярим ўтказгичларнинг ўтказувчанлиги”. Материалы международной научно-практической конференции (14 ноября 2023 г.)
3. Назаров А.Н., Симонов М.В. ATM технологии: высокоскоростных сетей. ЭКО-ТРЕНДЗ, Москва, 1998.
4. Б.С. Гольдштейн. Протоколы сети доступа. Том 2. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Радио и связь, 2002.
5. Коммутация и маршрутизация IP/IPX трафика. М. В. Кульгин АйТИ. - М.: Компьютер-пресс, 1998.
6. Н.А. Соколов. Эволюция местных телефонных сетей. - Издательство ТОО «Типография «Книга», Пермь, 1994.
7. Н.А. Соколов. Сети абонентского доступа. Принцип построения-Пермь, «Энтер-профи», 1999.
8. . А. Соколов. Телекоммуникационные сети. - М: Альварес Паблишинг, 2003
9. F.E. Yevdokimov. «Obhaya elektrotexnika». Moskva. «Vo's.shkola», 2001 g.
- 10.U.R. Xalmanov. Elektr zanjirlarining asosiy qonunlari “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” журнали volume 1, issue 8, 2023. november 375-381 b

**Research Science and
Innovation House**

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

Conceptual framework for ensuring sustainable development of regions and efficient use of water resources

Saukhanov Janibek Kazievich

Professor of the Department of Economics, Karakalpak State University

Amanbaev Amanali Orazbaevich

Applicant for the Department of Economics, Karakalpak State University

Abstract : This publication presents the conceptual framework for sustainable development of regions and ensuring the efficient use of water resources, as well as problems arising in the process of socio-economic development of the region.

Key words : sustainable development, water shortage, efficient use of water resources, economic policy.

The concept of sustainable development interprets the idea of economic and social development of regions without destroying the natural environment and ensuring its integrity with other elements. The regional economic policy of any country covers scientific issues of sustainable and balanced development with the rational use of social, economic and environmental factors.

Regional economic policy is a set of measures that have a direct impact on the location of productive forces in order to create conditions for stable economic development [1]. It is important to systematize many factors, such as capital, natural and economic resources, production and social infrastructure, qualified personnel, based on the concept of sustainable development of the region with the rational placement of productive forces in the regions.

It is known that many opinions have been expressed regarding the goals and directions of the state's regional economic policy in the field of sustainable development of regions. In particular, a group of researchers expressed the opinion that “the country's regional economic policy should ensure a relatively uniform and reasonable distribution of productive forces based on the formation of an intercompatible system of production and social infrastructure” [2].

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

In a number of scientific sources, the issue of rational use of natural resources is mentioned as one of the main goals of the country's regional policy.

It is important to pay attention to the quality, scale and rational use of natural resources when determining the objectives of regional economic policy pursued in the country and the causes of regional inequality [3].

Indeed, in the sustainable development of regions it is necessary to pay serious attention to aspects of the quality and scale of use of natural resources. For example, the relevance of the issue of efficient use of land and water resources while ensuring interregional environmental balance is characterized by the lack of possibility of increasing their quantity from internal sources. If these current problems are considered from the point of view of the Syr Darya and Amu Darya basins, it becomes clear that they have specific regional aspects.

In the conditions of modern water scarcity, the task is to ensure the sustainable development of the region by solving the complex problem of meeting the water and energy needs of a growing population, industrial and agricultural production.

At the same time, water resources remain one of the main factors not only in the socio-economic development of a network or region, but also in their formation. Based on this, we can say that water shortage in the basin, high water consumption in production, water ecology and transboundary problems are all issues that require serious attention in the country's regional policy.

Changes in the world economy in recent years, new industrialization and modernization of the economy show that attention is paid to theoretical and methodological issues of the concept of sustainable development.

Sustainable development is a direction that focuses on preserving the natural environment and expanded reproductive potential for a long period of time, balancing the elements of the ecological, social and economic system of society. “The concept of sustainable development reflects the balance between social needs, economic and environmental opportunities to ensure the stability of society and improve the quality of life of people.” Based on this, we can say that the main task of the system of economic sciences today is to assimilate the ideas of sustainable development and develop, on this basis, theoretical directions for the development of economic management mechanisms. One of the central provisions of the concept of sustainable development is that when using nature, it is emphasized not to deprive its elements of regeneration capabilities. The first paradigm for the concept of sustainable development

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

was given by the Canadian Environmental Commission in 1915: “Each generation has the right to use a certain part of the natural capital, i.e. their percentage, therefore the main part of natural capital must be transferred to the next generation intact and intact” [4,5]. According to this, humanity will have to live off a percentage of natural resources.

As mentioned above, one of the main conditions for sustainable development is the rational and efficient use of regional water resources. Theoretically, establishing the efficient use of water resources in the regions is within the framework of theoretical-ideological, scientific-practical, regional tasks. Internal problems include inefficient use of water resources in the regions and deterioration of the infrastructure system to such an extent that it does not meet competitive requirements, as well as technogenic and anthropogenic impacts.

External factors mainly include effects associated with changes in the flow regime of transboundary rivers and the hydrological regime of large reservoirs, as well as water distribution problems arising from the mutual use of water. Theoretical and methodological mechanisms for efficient water use should be aimed at ensuring sustainability by assessing these problems and reducing their consequences.

A group of researchers recommended ideas for achieving macroeconomic stability mainly through structural and institutional improvement of the water management network and increasing the efficiency of water use in economic sectors.

In particular, in the sustainable development of regions, the application of ideas for managing water needs will have a great effect in the regions by improving the system of standards for the efficient use of water, achieving efficiency through specialization in industries with low water consumption in Uzbekistan. In fact, scientific conclusions were obtained by analyzing the state of water use within the agricultural sector, where a lot of water is consumed.

Based on the above considerations and scientific approaches, it would be advisable if the concepts of effective and rational use of water resources were defined as follows:

“Efficient use of water resources” means the maximum efficiency of each unit of water used, taking into account future needs;

“Rational use of water resources” means the economical use of surface and underground water sources without disturbing the mutual balance of natural elements.

In this case, it is necessary to start saving in the rational use of water, taking into account the needs of the environment and wildlife in the river basin itself. Then the balance in nature will not be disrupted. Having taken water from the source, we must

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 3. March 2024

think about how to benefit from every drop of it. Rational use is established in the river basin, and efficient use is established in irrigated areas. This is the only way we will establish efficient use of water resources in the regions based on the ideas of sustainable development. Therefore, in the new edition of the concept of sustainable development of Uzbekistan, along with the above points, it is appropriate to seriously consider the territorial features of the country. The concepts of “Sustainable Development” and “Green Economy” can become the theoretical basis for the formation of a new way of efficient and rational use of water in the regions. In turn, it is necessary to establish efficient use of water resources for stable socio-economic development of the regions.

Literature

1. Абдусалымов М. О целях и методологических основах региональной политики.// сб.статьй “Современные проблемы региональной экономики”,- Т.: ТГЭУ. 2015
2. Салиев А.С., Янчук С.Л. Размещение производительных сил и поляризованное развитие экономики Республики Узбекистан. - Ташкент: Университет, 2005
3. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. - Ташкент: Iqtisod-moliya, 2005
4. Основы региональной экономики. Учебное пособие/А.В. Андреев, Л.М. Борисова, Э.В. Плучевская. -2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2016
5. Пшихачев С.М., Парадигма стабильного развития аграрной сферы // Экономический вестник Ростовского государственного университета. 2005. Т. 3. №1

Research Science and Innovation House

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

MUNDARIJA

№	Maqola(Tezis) nomi va mualliflar (F.I.SH)	Betlar
1.	SURUNKALI TONZILLIT RIVOJLANISHIDAGI XAVF OMILLARINI O'RGANISH VA DAVOLASH Avezov M.I., Raximov U.R.	6-8
2.	BERDIMUROD QARG'ABOY O'G'LI BERDAQ HAYOTI VA IJODINI HAMDA SHERLARINING, ASARLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI Ahmedova Gulnoza, Avezova Mastura	9-11
3.	CHIZMACHILIK FANIDA QIRQIM MAVZUSINI SAMARALI O'ZLASHTIRISH OMILLARI VA ULARGA OID METODIK TAVSIYALAR Raxmonova Maftuna Abdulla qizi	12-15
4.	HOZIRGI KUNDA PEDAGOGIKA SOHASIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODLAR Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi	16-20
5.	O'qituvchilar jamoasidagi sog'lom psixologik muhitni shakllantirish Ergashova Dilobar Muhiddin qizi	21-26
6.	Yoshlarni yot g'oyalardan saqlash pedagoglar nazdida Xòjamqulova Sarvinoz Hasanovna	27-29
7.	TO'LIQ OLIB QO'YILADIGAN PROTEZLAR BILAN PRTOTEZLASH JARAYONIDA OPERATSION YUZANING QURUQLIGINI TAMINLAB BERISH VA YUMSHOQ TO'QIMALAR BILAN ISHLASH Alamov Jahongir Azamat o'g'li	30-34
8.	INKLYUZIV TA'LIM AMALIYOTIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH OMILLARI Sadirova Kamola Giyozovna	35-38
9.	COGNITIVE MECHANISMS OF FORMATION OF MEANINGS OF DERIVED WORDS Mamatova Iroda Botiraliyevna	39-43
10.	TILSHUNOSLIKDA ANOMASTIK TADQIQIOTLARNING ILMIY AHAMIYATI M.M. Maxsudova, G.I. Narmurodova	44-47

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 3. March 2024

11.	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANTIRISH ASOSLARI Nazarova Zarina Qodirjonovna	48-50
12.	RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI RIVOJI: MUAMMO VA YECHIMLARI Nazarova Zarina Qodirjonovna	51-53
13.	O'QITUVCHILARDA PSIXOLOGIK ONGNING SHAKLLANISHI Najmuddinova Saodat Abduvohid qizi	54-58
14.	Javohirlarga teng Berdaqning asarlari Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi	59-62
15.	XXI asr ko'nikmalari asosida ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etish (4K modeli asosida) Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi	63-65
16.	Телекоммуникация соҳасида кириш занжирларининг асосий кўрсаткичлари Халманов У.Р	66-71
17.	Conceptual framework for ensuring sustainable development of regions and efficient use of water resources Saukhanov Janibek Kazievich Amanbaev Amanali Orazbaevich	72-75
18.	MUNDARIJA	76-77

**Research Science and
Innovation House**